

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RSTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'RSTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
O'RSTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMINI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

A. ABDUHAMIDOV, H. NASIMOV,
U. NOSIROV, J. HUSANOV

**ALGEBRA
VA MATEMATIK
ANALIZ
ASOSLARIDAN
MASALALAR TO'PLAMI**

I q i s m

*Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun
o'quv qo'llanma*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHРИRİYATI
TOSHKENT — 2003

512
517.2

T a q r i z chilar:


O'zbekiston milliy universiteti qoshidagi
S. H. SIROJIDDINOV nomli akademik litsey;

SamDU qoshidagi gimnaziya matematika o'qituvchisi,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dots. H. N. NOSIROVA

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

H. A. NASIMOVning umumiy tahriri ostida

lo 29266
21g.



W

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2002-yil.
© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2003-yil.

SO‘Z BOSHI

Respublikamizda ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda akademik litseylarning matematika fani chuqur o‘rganiladigan guruhlari uchun amaldagi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladigan va dasturdagi mavzular bo‘yicha turli xil qiyinlik darajasiga ega bo‘lgan misol va masalalarni qamrab oladigan masalalar to‘plamining mavjud emasligi ushbu «Algebra va matematika analiz asoslari dan masalalar to‘plami»ning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va 2000—2001 o‘quv yilidan boshlab amalga kiritilgan o‘quv dasturiga qat’iy amal qilingan holda yozildi.

Qo‘llanma asosan akademik litseylarning o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari, shuningdek, matematikani mustaqil o‘rganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Qo‘llanma yetti bobdan iborat bo‘lib, har bir bob para graflarga bo‘lingan va u quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi:

1. To‘plamlar nazariyasi va matematik mantiq elementlari.

2. Haqiqiy sonlar.
3. Kompleks sonlar.
4. Ko‘phadlar.
5. Algebraik ifodalar.
6. Algebraik tenglamalar va tengsizliklar.
7. Funksiyalar va grafiklar.

Mualliflar zarur deb hisoblagan o‘rnarda misol va masalalarning yechimlari, yechishga doir ko‘rsatmalar keltirilgan.

Mualliflar o‘quv qo‘llanmasining yaratilishi va uning sifatini yaxshilashga yaqindan yordam bergan SamDU akademik litseyi o‘qituvchilari, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi R. G‘ulomovga, fizika-matematika fanlari nomzodi, dots. A. Umarovga minnatdorchilik bildirishni o‘z burchlari deb hisoblaydilar, shuningdek, kitobni Rentium kompyuterida sahifalagan V. A. Mamedov va I. X. Nasimovlarga samimiyl tashakkur bildiradilar.

Masalalar to‘plamida ba’zi bir kamchiliklar uchrashi ehti-moldan xoli emas. Kamchiliklar haqida fikr va mulohazalar bildirgan hamkasblarga mualliflar oldindan samimiyl tashakkur izhor etadilar.

I b o b. TO'PLAMLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK MANTIQ ELEMENTLARI

1-§. TO'PLAM VA UNING ELEMENTLARI. BO'SH TO'PLAM

To'plam tushunchasi matematikaning ta'riflanmaydigan tushunchalaridan biridir.

To'plamni tashkil etgan narsalar uning elementlari deyiladi. Masalan, 5 dan kichik bo'lgan natural sonlar to'plami quyidagi elementlardan tashkil topadi: 1,2,3,4.

To'plamlar lotin alibbosining bosz harflari bilan, uning elementlari esa shu alifboning kichik harflari bilan belgilanadi. Masalan, $A=\{a,b,c,d\}$ yozuvi A to'plam a, b, c, d elementlardan tashkil topganligini bildiradi.

Agar x element X to'plamning elementi bo'lsa, $x \in X$ shaklda yoziladi. $x \notin X$ yozuvi x element X to'plamning elementi emasligini bildiradi.

Masalan, agar N-natural sonlar to'plami bo'lsa, u holda $4 \in N$, $5 \in N$, $\frac{3}{4} \in N$, $\pi \in N$.

Birorta ham elementga ega bo'lmasagan to'plam bo'sh to'plam deyiladi va \emptyset belgi bilan belgilanadi.

To'plamga tegishli bo'lgan elementlarga qanoatlan-tiradigan shartlar sistemasini shu to'plamning xarakteristik xossasi deb atash qabul qilingan.

Misol. $A=\{x|x \in N, x < 7\}$ to'plam elementlarini ko'rsating.

Y e c h i s h. A to'plam 7 dan kichik bo'lgan barcha natural sonlardan tuzilgan, ya'ni $A=\{1,2,3,4,5,6\}$.

1.1. O'zbekiston Respublikasidagi barcha viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi nomlari to'plamini tuzing.

1.2. O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasida qatnashgan harflar to'plamini tuzing.

1.3. O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi qabul qilingan yilda qatnashgan raqamlar to'plamini tuzing.

1.4. $A=\{10; 12\frac{3}{4}; 17,3; -7; 136\}$ to'plam berilgan. Qaysi

natural sonlar bu to‘plamga kiradi? Shu to‘plamga tegishli bo‘Imagan uchta son ayting. \in , \notin belgilari yordamida qo‘yilgan savollarga javob yozing.

1.5. S to‘plam $-3;-2;-1;4$ elementlardan tuzilgan. Shu to‘plamni yozing. Shu sonlarga qarama-qarshi sonlarning S to‘plamini tuzing.

1.6. «Bo‘s sh vaqtidan unumli foydalan» jumlasidagi harflar to‘plamini tuzing.

1.7. Quyidagi yozuvlarni o‘qing va har bir to‘plamning elementlarini ko‘rsating:

- | | |
|--|--|
| a) $E = \{x x \in \mathbb{N}, -1 < x < 5\};$ | b) $F = \{x 5x = x - 7\};$ |
| d) $Q = \{x x(x+12)=0\};$ | e) $U = \{x x \in \mathbb{R}, x^2=2\};$ |
| f) $V = \{x x \in \mathbb{N}, x^2 < 9\};$ | g) $W = \{x x \in \mathbb{N}, x^2 \leq 9\}.$ |

1.8. Quyidagi to‘plamlarni son o‘qida belgilang:

- | | |
|---|--|
| a) $\{x x \in \mathbb{N}, x \leq 3\};$ | b) $\{x x \in \mathbb{Z}, -2 \leq x \leq 2\};$ |
| d) $\{x x \in \mathbb{R}, x > 4.1\};$ | e) $\{x x \in \mathbb{R}, -2,7 \leq x \leq 1\};$ |
| f) $\{x x \in \mathbb{R}, x < 6\};$ | g) $\{x x \in \mathbb{R}, 3,4 < x \leq 8\};$ |
| h) $\{x x \in \mathbb{R}, -3 \frac{1}{4} \leq x \leq -1\};$ | i) $\{x x^2=4\};$ |
| j) $\{x (x^2-1)(x^2-4)=0\}.$ | |

1.9. Quyidagi to‘plam elementlarini toping:

- a) 1 va 3 bilangina yoziladigan barcha uch xonali sonlar to‘plami;
- b) 1,3,5 raqamlaridan (faqat bir marta) foydalanib yoziladigan barcha uch xonali sonlar to‘plami;
- d) Raqamlarining yig‘indisi 5 ga teng bo‘lgan uch xonali sonlar to‘plami;
- e) 100 dan kichik va oxirgi raqami 1 bo‘lgan barcha natural sonlar to‘plami.

1.10. Quyidagi to‘plamlardan qaysilar bo‘sh to‘plam:

- a) Simmetriya markaziga ega bo‘Imagan kvadratlar to‘plami;
- b) $\{x | x^2+1=0\};$
- c) $\{x | x \in \mathbb{R}, x^2=1\};$
- d) $\{x | x \in \mathbb{R}, |x|=3\};$
- e) $\{x | x \in \mathbb{R}, x^4=1\};$
- f) $\{x | x^4-16=3\}.$

1.11. Quyidagi to‘plamning bo‘sh to‘plam ekanligini isbotlang:

- | | |
|---|---|
| a) $\{x x \in \mathbb{N}, x < -1\};$ | b) $\{x x \in \mathbb{N}, 15 < x < 16\};$ |
| d) $\{x x \in \mathbb{N}, x = \frac{3}{5}\};$ | e) $\{x x > 7, x < 5\}.$ |

1.12. Tenglamaning haqiqiy ildizlari to‘plamini toping. Bu to‘plamlarning qaysilar bo‘sh to‘plam ekanligini aniqlang:

- a) $3x+15=4(x-8)$; b) $2x+4=4$; d) $2(x-5)=3x$;
e) $x^2-4=0$; f) $x^2+16=0$; g) $(2x+7)(x-2)=0$.

1.13. Quyidagi to'plam elementlarini ko'rsating:

- a) $\{l, f, g\}$; b) $\{a\}$; d) $\{\{a\}\}$; e) \emptyset ;
f) $\{\emptyset\}$; g) $\{\{a,b\}, \{c;d\}\}$; h) $\{\{a,b,c\}, a\}$.

1.14. 5 ta elementga ega bo'lgan to'plam tuzing.

1.15. 5 ta natural son qatnashgan sonli to'plam tuzing.

2-§. QISM TO'PLAM. TENG TO'PLAMI'LAR

Agar B to'plamning har bir elementi A to'plamning ham elementi bo'lsa B to'plam A to'plamning *qism to'plami* deyiladi va $B \subset A$ ko'rinishida belgilanadi. Bunda $\emptyset \subset A$, $A \subset A$ deb hisoblanadi. Bu qism to'plamlar *xosmas qism to'plamlar* deyiladi. A to'plamning qolgan barcha qism to'plamlari *xos qism to'plamlar* deyiladi. n ta elementdan tuzilgan to'plamning barcha qism to'plamlari soni 2^n ga teng.

Agar $A \subset B$, $B \subset A$ bo'lsa, $A=B$ deyiladi.

I - m i s o l. A — ikki xonali sonlar to'plami, B — ikki xonali juft sonlar to'plami bo'lsin. Har bir ikki xonali juft son A to'plamda ham mavjud. Demak $B \subset A$.

2 - m i s o l. $A=\{1,2,3\}$, $B=\{x | x \in N, x < 4\}$ to'plamlar berilgan bo'lsin. B to'plam 4 dan kichik bo'lgan natural sonlar to'plamidir, ya'ni $B=\{1,2,3\}$. A va B to'plamlar ayni bir xil elementlardan tashkil topgan. Demak, $A=B$.

2.1. $A=\{a, b, c, d, e, f, g, k\}$, $B=\{a, l, k\}$, $C=\{b, d, g, k, l\}$, $D=\{a, l\}$, $E=\{e, f, k, g\}$ to'plamlar berilgan.

a) Ularning qaysilari A to'plamning xos qism to'plami bo'ladi?

b) D to'plam C to'plamning qism to'plamimi?

d) B to'plam qaysi to'plamning qism to'plami bo'ladi?

2.2. $C=\{213, 45, 324, 732, 136\}$ to'plam berilgan. C to'plamning

a) 3 ga bo'linadigan; b) 9 ga bo'linadigan;

d) 4 ga bo'linmaydigan; e) 5 ga bo'linmaydigan;

f) 3 ga bo'linmaydigan sonlaridan tuzilgan qism to'plamlarini toping.

2.3. $A=\{3, 6, 9, 12\}$ to'plamning barcha qism to'plamlarini hosil qiling.

2.4. To'plamlar jufti berilgan:

a) $A=\{\text{Navoiy, Bobir, Furqat, Nodirabegim}\}$ va B — barcha shoir va shoiralalar to'plami;

b) C — qavariq to'rtburchaklar to'plami va D — to'rtburchaklar to'plami;

d) E — toshkentlik olimlar to'plami, F — O'zbekiston olimlari to'plami;

e) K — barcha tub sonlar to'plami, M — manfiy sonlar to'plami.

Juftlikdagi to'plamlardan qaysi biri ikkinchisining qism to'plami bo'lishini aniqlang.

2.5. To'rtburchaklar to'plami T va uning quyidagi qism to'plamlari berilgan:

A — parallelogrammlar to'plami;

B — romblar to'plami;

C — trapetsiyalar to'plami;

D — to'g'ri to'rtburchaklar to'plami;

E — kvadratlar to'plami.

Bu qism to'plamlarning har birini qanday xarakteristik xossalari bilan aniqlash mumkin?

2.6. Quyidagi to'plamlar uchun $A \subset B$ yoki $B \subset A$ munosabatlardan qaysi biri o'rinli:

a) $A=\{a,b,c,d\}$, $B=\{a,c,d\}$; b) $A=\{a,b\}$, $B=\{a,c,d\}$;

d) $A=\emptyset$, $B=\emptyset$; e) $A=\emptyset$, $B=\{a,b,c\}$;

f) $A=\emptyset$, $B=\{\emptyset\}$; g) $A=\{\{a\},a,\emptyset\}$, $B=\{a\}$;

h) $A=\{\{a,b\},\{c,d\},c,d\}$, $B=\{\{a,b\},c\}$;

i) $A=\{\{0\},0\}$, $B=\{\emptyset,\{\{0\},0\}\}$.

2.7. Tasdiq to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang:

a) $\{1;2\} \subset \{\{1;2;3\};\{1;3\};1;2\}$;

b) $\{1;2\} \in \{\{1;2;3\};\{1;3\};1;2\}$;

d) $\{1;3\} \subset \{\{1;2;3\};\{1;3\};1;2\}$;

e) $\{1;3\} \in \{\{1;2;3\};\{1;3\};1;2\}$.

2.8. Quyidagi to'plamlar tengmi:

a) $A=\{2;4;6\}$ ба $B=\{6;4;2\}$;

b) $A=\{1;2;3\}$ ба $B=\{1;11;111\}$;

d) $A=\{\{1;2\},\{2;3\}\}$ ба $B=\{2;3;1\}$;

e) $A=\{\sqrt{256}; \sqrt{81}; \sqrt{16}\}$ ба $B=\{2^2; 3^2; 4^2\}$?




2.9. A — natural sonlar to'plami, B — juft natural sonlar to'plami, C — toq natural sonlar to'plami, D — 2 ga ham, 3 ga ham bo'linadigan sonlar to'plami, E — o'nli yozuvi 0 bilan tugaydigan sonlar to'plami, F — 6 ga karrali sonlar to'plami, M — 2 ga ham, 5 ga ham karrali bo'lgan sonlar to'plami bo'lsin. Qaysi to'plam qaysi to'plamning qism to'plami bo'lishini aniqlang. Berilgan to'plamlar orasida teng to'plamlar mavjudmi?

- 2.10.** Qaysi to'plamlar juftligidagi to'plamlar teng:
- $X=\{3,5,7,9\}$, Y — 2 dan katta, lekin 10 dan kichik toq sonlar to'plami;
 - $X=\{4,6,8\}$, Y — 1 dan katta, lekin 9 dan kichik juft sonlar to'plami;
 - X — ikkita toq sonlarning yig'indisi bo'lgan sonlar to'plami, Y — juft sonlar to'plami;
 - X — tekislikda M va K nuqtalardan bir xil uzoqlashgan nuqtalar to'plami, Y — MK kesmaning o'rta perpendikulyaridagi nuqtalar to'plami.

3-§. TO'PLAMLAR USTIDA AMALLAR

Ikki to'plamning kesishmasi, birlashmasi va ayirmasiga beriladigan ta'riflar ayoniy bo'lishi uchun Eyler-Venn diagrammalaridan ham foydalanamiz.

A va B to'plamlarning har birida mavjud bo'lgan x element shu to'plamlarning umumiy elementi deyiladi. A va V to'plamlarning *kesishmasi* deb, ularning hamma umumiy elementlaridan tuzilgan to'plamga aytildi. A va B to'plamlarning kesishma $A \cap B$ ko'rinishida belgilanadi (1-a rasm), $A \cap B = \{x | x \in A \text{ va } x \in B\}$.



1-rasm.

A va B to'plamlarning *birlashmasi* deb, ularning kamida bittasida mavjud bo'lgan barcha elementlardan tuzilgan to'plamga aytildi. A va B to'plamlarning birlashmasi $A \cup B$ ko'rinishida belgilanadi (1-b rasm):

$$A \cup B = \{x | x \in A \text{ yoki } x \in B\}.$$

A va B to'plamlarning ayirmasi deb, A ning B da mavjud bo'lмаган барча элементларидан тузилган то'пламга айтildi. A va B to'plamlarning ayirmasi $A \setminus B$ ko'rinishda belgilanadi (1-d rasm):

$$A \setminus B = \{x | x \in A \text{ va } x \notin B\}.$$

Agar $B \subset A$ bo'lsa, $A \setminus B$ to'plam B to'plamning to'ldiruvchisi deyiladi va B' bilan belgilanadi.

1 - m i s o l. A={a,b,c,d,e,f} va B={b,d,e,g,h} to‘plamlar berilgan. Ularning kesishmasini toping.


Y e c h i s h. b,d,e elementlarga A va B to‘plamlarning umumiy elementlaridir.

Shuning uchun, $A \cap B = \{b, d, e\}$.

2 - m i s o l. A={x| $\frac{2}{3} \leq x \leq \frac{7}{4}$ }, B={ x| $\frac{1}{4} \leq x \leq 2$ } to‘plamlarning kesishmasi, birlashmasi va ayirmasini toping (2-rasm).

Y e c h i s h. $A \cap B = \{x| \frac{1}{4} \leq x \leq \frac{7}{4}\}$; $A \cup B = \{x| \frac{2}{3} \leq x \leq 2\}$;

$A \setminus B = \{x| \frac{2}{3} \leq x < \frac{1}{4}\}$. (2-pasm).



2-rasm.

3 - m i s o l. Agar $A \subset B$ bo‘lsa, $A \cup B = B$ bo‘ladi. Isbotlang.

Isbot. $A \subset B$ bo‘lsin. a) $A \cup B \subset B$ ni ko‘rsatamiz. $x \in A \cup B$ bo‘lsin. U holda $x \in A$ yoki $x \in B$ bo‘ladi. Agar $x \in A$ bo‘lsa, $A \subset B$ ekanidan $x \in B$ ekani kelib chiqadi, ikkita holda ham $A \cup B$ ning har qanday elementi B ning ham elementidir. Demak, $A \cup B \subset B$.

b) $B \subset A \cup B$ ni ko‘rsatamiz. $x \in B$ bo‘lsin. U holda, to‘plamlar birlashmasining ta’rifiga ko‘ra $x \in A \cup B$ bo‘ladi. Demak, B ning har qanday elementi $A \cup B$ ning ham elementi bo‘ladi, ya’ni $B \subset A \cup B$.

Shunday qilib, $A \cup B \subset B$, $B \subset A \cup B$. Bular esa $B = A \cup B$ ekanini tasdiqlaydi. Isbot bo‘ldi.

3.1. M={36;29;15;68;27}; P={4;15;27;47;36;90}; Q={90;4;47} to‘plamlar berilgan. M∩P, M∩Q, P∩Q, M∩P∩Q larni toping.

3.2. A — 18 ning hamma natural bo‘luvchilari to‘plami. B — 24 ning hamma natural bo‘luvchilari to‘plami, $A \cap B$ to‘plam elementlarini ko‘rsating (Eyler-Venn diagrammasidan foydalaning).

3.3. P ikki xonali natural sonlar to‘plami, S barcha toq natural sonlar to‘plami bo‘lsa, K=P∩S to‘plamga qaysi sonlar kiradi:

a) $21 \in K$; b) $32 \in K$; d) $7 \notin K$; e) $17 \notin K$ deyish to‘g‘rimi?

3.4. «Matematika» va «grammatika» so‘zlaridagi harflar to‘plamini tuzing. Bu to‘plamlar kesishmasini toping.

3.5. [1;5] va [3;7] kesmalarning kesishmasini toping.

3.6. $P=\{a,b,d,e,f,g\}$ va $E=\{a,h,i,j,k\}$ to‘plamlar birlashmasini toping.

3.7. $A=\{n| n \in N, n < 5\}$ va $B=\{n| n \in N, n > 7\}$ to‘plamlar birlashmasini toping: a) $4 \in A \cup B$; b) $-3 \in A \cup B$; v) $6 \in A \cup B$ deyish to‘g‘rimi?

3.8. Agar a) $A=\{x| x=8k, k \in Z\}$, $B=\{x| x=8l-4, l \in Z\}$; b) $A=\{x| x=6k-1, k \in Z\}$, $B=\{x| x=6l+4, l \in Z\}$ bo‘lsa $A \cup B$ ni toping.

3.9. $A=\{2;4;6;8;\dots;40\}$, $B=\{1;3;5;7;\dots;37\}$, $C=\{\{a;b\}, \{c;d\}, \{e;f\}, \{g;h\}\}$ to‘plamlarning har biridagi elementlar sonini aniqlang. $A \cup B$ da nechta element mavjud?

3.10. $A=\{2;3;4;5;7;10\}$, $B=\{3;5;7;9\}$, $C=\{4;9;11\}$ bo‘lsin. Quyidagi to‘plamlarda nechtadan element mavjud:

- a) $A \cup (B \cup C)$; b) $(C \cup B) \cup (A)$; d) $A \cap (B \cup C)$;
e) $A \cup (B \cap C)$; f) $A \cap (B \cap C)$; g) $B \cap (A \cup C)$?

3.11. $A=\{x| -5 \leq x \leq 10\}$, $B=\{x| x \in N, 3 \leq x \leq 15\}$ bo‘lsin. $A \setminus B$ va $B \setminus A$ to‘plam elementlarini toping.

3.12. P — ikki xonali natural sonlar to‘plami, Q — juft natural sonlar to‘plami bo‘lsin. $P \setminus Q$ va $Q \setminus P$ to‘plamlarni tuzing.

3.13. C va D kesishuvchi to‘plamlar bo‘lsin. Eyler-Venn diagrammalari yordamida $C \setminus D$, $D \setminus C$, $(C \setminus D) \cup (D \setminus C)$ larni tasvirlang.

3.14. N' bilan natural sonlar to‘plami N ning butun sonlar to‘plami Z ga to‘ldiruvchisini belgilaymiz. Quyidagilar to‘g‘rimi:

- a) $-4 \in N'$; b) $0 \in N'$; d) $13 \in N$; e) $-8 \notin N'$;
f) $-5, 3 \in N'$; g) $0 \notin N'$?

3.15. $A=\{x| x=2k+1, k \in Z\}$ to‘plamning Z to‘plamga to‘ldiruvchisini toping.

3.16. $A=\{x| x=3k, k \in Z\}$ to‘plamning Z to‘plamga to‘ldiruvchisini toping.

3.17. Agar $A \subset U$, $B \subset U$ bo‘lsa, quyidagi tengliklar o‘rinli bo‘lishini isbotlang:

- a) $(A \cup B)' = A' \cap B'$; b) $(A \cap B)' = A' \cup B'$. (Izoh: U ga to‘ldirish deb tushunilsin).

3.18. Agar A to‘plam $x^2 - 7x + 6 = 0$ tenglamaning yechimlari to‘plami va $B=\{1;6\}$ bo‘lsa, $A=B$ bo‘lishini isbotlang.

3.19. $A \setminus B = A \setminus (A \cap B)$ tenglikni isbotlang.

3.20. $A \cap (B \setminus A) = \emptyset$ tenglikni isbotlang.

4-\$. TO'PLAM ELEMENTLARINING SONI BILAN BOG'LIQ AYRIM MASALALAR

$n(A)$ bilan A to'plam elementlarining sonini belgilaymiz.
Har qanday A va B chekli to'plamlar uchun
 $n(A \cup B) = n(A) + n(B) - n(A \cap B)$ tenglik to'g'ri.

Misol. 50 o'quvchining 37 tasi ingliz tilini, 17 tasi esa nemis tilini o'rganayapti. Agar 50 o'quvchining har biri shu ikki tilning kamida bittasini o'rganayotgan bo'lsa, necha o'quvchi ikkala tilni ham o'rganayapti?

Yechish. A — barcha o'quvchilar to'plami, B — ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilar to'plami, C esa nemis tilini o'rganayotgan o'quvchilar to'plami bo'lsin. $n(A)=50$, $n(B)=37$, $n(C)=17$ larga egamiz. Masala mazmunidan, $n(B \cap C)$ ni topish lozimligini ko'ramiz. Tushunarlik, $A=B \cup C$. $n(B \cup C)=n(B)+n(C)-n(B \cap C)$ tenglikdan $50=37+17-n(B \cap C)$ yoki $n(B \cap C)=4$ ni topamiz. Shunday qilib, 4 o'quvchi ikkala tilni ham o'rganayotgan ekan.

4.1. Sinfdag'i bir necha o'quvchi marka yig'dilar. 15 o'quvchi O'zbekiston markalarini, 11 kishi chet el markalarini, 6 kishi ham O'zbekiston markalarini, ham chet el markalarini yig'di. Sinfda necha o'quvchi marka yig'gan?

4.2. 32 o'quvchining 12 tasi voleybol seksiyasiga, 15 tasi basketbol seksiyasiga, 8 kishi esa ikkala seksiyaga ham qatnashadi. Sinfdag'i necha o'quvchi hech bir seksiyaga qatnashmaydi?

4.3. 30 o'quvchidan 18 tasi matematikaga, 17 tasi esa fizikaga qiziqadi. Ikkala fanga ham qiziqadigan o'quvchilar soni nechta bo'lishi mumkin? (Ko'rsatma: Ikkala fanga ham qiziqmaydigan o'quvchilar soni $k \in \{0, 1, 2, 3, \dots, 12\}$).

4.4. 100 odamdan iborat turistlar guruhibda 10 kishi nemis tilini ham, fransuz tilini ham bilmaydi, 75 tasi nemis tilini, 83 tasi esa fransuz tilini biladi. Ikkala tilni ham biladigan turistlar sonini toping.

4.5. 26 o'quvchining 14 tasi shaxmatga, 16 tasi shashkaga qiziqadi. Agar har bir o'quvchi shaxmatga yoki shashkaga qiziqsa, ham shashkaga, ham shaxmatga qiziqadigan o'quvchilar nechta?

5-§. TO'PLAMLAR USTIDA BARCHA AMALLARGA DOIR MASALALAR

5.1. To'plamlar kesishmasini va birlashmasini toping.
Eyler-Venn diagrammasi yordamida grafik talqin qiling:

- a) $A=\{5,6,7,8,9,10\}$, $B=\{8,9,10,11\}$;
- b) $A=\{x| x=2n, n \in \mathbb{N}\}$, $B=\{x| x=\frac{n+1}{2}, n \in \mathbb{N}\}$;
- c) $A=\{x| x=5n, n \in \mathbb{N}\}$, $B=\{x| x=2n, n \in \mathbb{N}\}$;
- e) $A=\{x| x=\frac{1}{n}, n \in \mathbb{N}\}$, $B=\{x| x=\frac{2}{n}, n \in \mathbb{N}\}$;

5.2. P va Q to'plamlar kesishmasi va birlashmasini son to'g'ri chizig'ida tasvirlang:

- a) $P=\{x| \frac{10}{3} < x < \sqrt{8}\}$, $Q=\{x| \frac{26}{27} < x < 3.2\}$;
- b) $P=\{x| -\frac{1}{3} < x < \frac{5}{3}\}$, $Q=\{\sqrt{2} < x \leq \frac{40}{27}\}$;
- d) $P=\{x| \frac{11}{4} \leq x \leq \frac{19}{3}\}$, $Q=\{x| \frac{19}{7} < x \leq \frac{32}{5}\}$;
- e) $P=\{x| \frac{4}{11} \leq x < \frac{18}{5}\}$, $Q=\{\sqrt{2} < x < 10\}$.

5.3. Quyidagi tengliklarni isbotlang:

- a) $A \cap B = B \cap A$;
- b) $(A \cap B) \cap C = A \cap (B \cap C)$;
- d) Agar $A \subset B$ bo'lsa, $A \cap B = A$;
- e) $A \cap \emptyset = \emptyset$;
- f) $A \cap A = A$.

5.4. Quyidagi tengliklarni isbotlang:

- a) $A \cup B = B \cup A$;
- b) $(A \cup B) \cup C = A \cup (B \cup C)$;
- d) $A \subset B$ bo'lsa, $A \cup B = B$;
- e) $A \cup \emptyset = A$;
- f) $A \cup A = A$.

5.5. Isbotlang:

- a) $(A \cup B) \cap C = (A \cap C) \cup (B \cap C)$;
- b) $(A \cap B) \cup C = (A \cap C) \cap (B \cup C)$.

5.6. Ayirish va to'ldirish amallarining quyidagi xossalari ni isbotlang (($A \subset B$, $B \subset C$, $C \subset U$ deb hisoblang)):

- a) $A \cap B = \emptyset$;
- f) $\emptyset' = U$;
- b) $A \cup B = U$;
- g) $U \cap F = \emptyset$;
- d) $(A \cap B) \cup (B \cap C) = A \cap (B \cup C)$;
- h) $(A \setminus B) \setminus C = A \setminus (B \cup C)$;
- e) $(A \cup B) \cap F = A \cap (B \cap F)$;
- i) $(A \setminus B) \cup B = A$.

6-§. MATEMATIK MANTIQ ELEMENTLARI

1) \Rightarrow — agar bo'lsa, u holda bo'ladi. $P \Rightarrow Q$ — agar P bo'lsa, Q bo'ladi (P dan Q kelib chiqadi);

2) \Leftrightarrow — teng kuchlilik $R \Leftrightarrow Q$, R va Q teng kuchli (R dan Q kelib chiqadi va aksincha);

- 3) \vee — diz'yunksiya («yoki» amali);
 4) \wedge — kon'yuksiya («va» amali);
 5) \forall — ixtiyoriy, barcha;
 6) \exists — shunday mavjud;
 7) \nexists — mavjud emas.

1 - m i s o l. Agar $a > b$ va $b > c$ bo'lsa, $a > c$ bo'ladi.
 $(a > b) \wedge (b > c) \Rightarrow (a > c)$.

2 - m i s o l. $a > b$ bo'lsa, $a + c > b + c$ bo'ladi.
 $(a > b) \Rightarrow (a + c > b + c)$.

3 - m i s o l. $a = 0$ yoki $b = 0$ bo'lsa, $ab = 0$ bo'ladi va
aksincha $ab = 0$ bo'lsa, $a = 0$ yoki $b = 0$ bo'ladi:
 $(ab = 0) \Leftrightarrow ((a = 0) \vee (b = 0))$.

4 - m i s o l. $a > 0$ va $b > 0$ bo'lsa, $ab > 0$ bo'ladi.
 $(a > 0) \wedge (b > 0) \Rightarrow (ab > 0)$.

5 - m i s o l. Ixtiyoriy x haqiqiy soni son uchun $x \geq x$.
 $\forall x \in \mathbb{R}: |x| \geq x$.

6 - m i s o l. Ixtiyoriy $a \geq 0$ son uchun, shunday $x \in \mathbb{R}$ son
mavjudki, $x^2 = a$ bo'ladi. $\forall a \geq 0, \exists x \in \mathbb{R}: x^2 = a$.

Quyidagi jumlalarni yuqoridagi belgilar yordamida
yozing (6.1.–6.10):

6.1. Ixtiyoriy $a \geq 0$ uchun, $\sqrt{a} = x$ tenglik o'rinni bo'ladigan
 x haqiqiy son mavjud.

6.2. $a < 0$ va $b > 0$ bo'lsa, $ab < 0$ bo'ladi.

6.3. Har qanday a, b haqiqiy sonlar uchun $a + b = b + a$
bo'ladi.

6.4. Agar a butun son 9 ga bo'linsa, u holda bu son 3 ga
ham bo'linadi.

6.5. 2 ham, 3 ga ham bo'linadigan butun son 6 ga ham
bo'linadi va aksincha 6 ga bo'linadigan butun son 2 ga ham,
3 ga ham bo'linadi.

6.6. Agar $a^2 + b^2 + c^2 = 0$ bo'lsa, $a = b = c = 0$ bo'ladi va
aksincha, $a = b = c = 0$ bo'lsa, $a^2 + b^2 + c^2 = 0$ bo'ladi.

6.7. Har qanday n natural sonni olmaylik, $n = 2k - 1$ yoki
 $n = 2k$ bo'ladigan k natural son mavjud.

6.8. Ixtiyoriy n, k natural sonlar uchun, $n^2 + k^3 \in N$ bo'ladi.

6.9. Ixtiyoriy n, k natural sonlar uchun, $n^2 - k^3$ butun son
bo'ladi.

6.10. $a < 0$ bo'lsa, $x^2 = a$ tenglik to'g'ri bo'ladigan haqiqiy
 x son mavjud emas.

II б о б. HAQIQIY SONLAR

1-§. NATURAL SONLAR

Hisoblang:

- 1.1. $78 \cdot 29 + 6573 : 313 - 408$.
- 1.2. $477 \cdot 85 - 7784 : 56 + 10809$.
- 1.3. $927 : 103 + (247 - 82) : 5 - 1$.
- 1.4. $(395 \cdot 52 - 603) \cdot 25 - 960 \cdot 64$.
- 1.5. $25 \cdot (28 \cdot 105 + 7236 : 18) : 6 - 25$.
- 1.6. $1092322 : 574 + 152 \cdot 93 - (96 \cdot 125 - 82215 : 9)$.
- 1.7. $79348 - 64 \cdot 84 : 28 + 6539 : 13 - 11005$.
- 1.8. $3121350 - (15125 : 25 + 302 \cdot 804 - (3044 + 2056) : 17) \cdot 9$.
- 1.9. $(110292 : 14 : 101 + 4129 - 3127) \cdot (1237 - 23138 : 23)$.
- 1.10. $4097 \cdot 7 - 7659 + 64 \cdot 105 - 6992 : 38 : 23$.

Bo‘linish alomatlarining tadbiqiga doir misollar

1.11. 1 dan 25 gacha bo‘lgan natural sonlar qatoridagi 6 ga bo‘linmaydigan natural sonlar to‘plamini tuzing.

1.12. 1 dan 25 gacha bo‘lgan natural sonlar qatoridagi 7 ga bo‘linadigan natural sonlar to‘plamini tuzing.

1.13. 15121, 117342, 1897524, 2134579, 31445698 sonlari orasidan 6 ga bo‘linadigan natural sonlar to‘plamini tuzing.

$k \in N$ soniga bo‘linadigan barcha natural sonlar to‘plamini A_k bilan belgilaymiz (1.14—1.20.).

1.14. Tasdiq to‘g‘rimi:

- | | | |
|---------------------|-----------------------|---------------------------|
| a) $2 \in A_3$; | f) $25 \in A_5$; | j) $15342749 \in A_9$; |
| b) $2 \in A_4$; | g) $36 \in A_2$; | k) $15342724 \in A_4$; |
| d) $6 \notin A_5$; | h) $41 \in A_3$; | l) $15342824 \in A_8$; |
| e) $11 \in A_9$; | i) $422 \notin A_9$; | m) $4343242 \in A_{11}$? |

1.15. $11 \cdot 12 \cdot 13 \cdot 14 \cdot 15 \cdot 16$ soni $A_2, A_3, A_4, A_5, A_6, A_7, A_8, A_9, A_{10}, A_{11}$ to‘plamlarning qaysilariga tegishli?

1.16.* $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \dots \cdot 8 \cdot 9 \notin A_k$ bo‘lsa, $k=2431$ bo‘lishi mumkinmi? $k \in \{15; 18\}$ bo‘lishi mumkinmi?

1.17.* $3 \cdot 5 \cdot 7 \in A_k$ bo‘lsa, k ning qabul qilishi mumkin bo‘lgan barcha qiymatlarini toping.

1.18. $A_2 \cap A_6, A_2 \cap A_3, A_3 \cap A_5$ larni toping.

1.19. $A_2 \cup A_3 = A_6$ tenglik to‘g’rimi?

1.20. $a \in A_1$, $b \in A_4$ bo‘lsa, $a+b \notin A_7$ bo‘lishi mumkinmi?

1.21. Sonlarni tub ko‘paytuvchilarga ajrating: 10; 100; 1000; 10000; 100000; 1000000. Qanday xulosaga kelish mumkin?

1.22. Sonlarni tub ko‘paytuvchilarga ajrating: 250; 300; 340; 3700; 48950; 4725000.

1.23. Sonlarni kanonik shaklda yozing:

- a) 36 ; f) 125 ; j) 946 ; n) 13860 ;
- b) 72 ; g) 36 ; k) 1001 ; o) 2431 ;
- d) 81 ; h) 512 ; l) 3125 ; p) 6783 ;
- e) 96 ; i) 680 ; m) 4500 ; q) 36363 .

1.24. Sonlarni kanonik shaklda yozing:

- a) $2 \cdot 3^2 \cdot 2^4 \cdot 6^2$; f) $18 \cdot 18 \cdot 15 \cdot 5$; j) $15^2 \cdot 17 \cdot 21^3$;
- b) $4 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 9$; g) $17 \cdot 19 \cdot 25$; k) $27^3 \cdot 11 \cdot 3^4$;
- d) $3 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 11$; h) $3^4 \cdot 4^3 \cdot 53$; l) $33 \cdot 34 \cdot 43^2$;
- e) $13 \cdot 13 \cdot 27$; i) $31^2 \cdot 33 \cdot 37^2 \cdot 39$; m) $117 \cdot 118 \cdot 119^2$.

Tub ko‘paytuvchilarga ajratishning tadbiqlariga doir misollar

1.25. Sonning bo‘luvchilarini toping:

- a) 209 ; b) 143 ; d) 2431 ; e) 2717 .

1.26. Sonlarning umumiy bo‘luvchilarini toping:

- a) 209 va 143; b) 209 va 2431; d) 143 va 2717; e) 2431 va 2717.

1.27. Sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini toping:

- a) 40 va 45; f) 50, 75 va 100; j) 63, 130, 143 va 1001;
- b) 130 va 160; g) 74, 45 va 60; k) 74, 60, 84 va 480;
- d) 121 va 143; h) 84, 63 va 42; l) 750, 800, 865 va 1431;
- e) 31 va 93; i) 72, 48 va 36; m) 143, 209, 1431 va 2717.

1.28. Quyidagi sonlar o‘zaro tubmi:

- a) 15 va 95; f) 121 va 143; j) 169 va 1443;
- b) 144 va 169; g) 11, 12 va 25; k) 111 va 121;
- d) 143 va 144; h) 14, 16 va 19; l) $n, n+1$ va $n+2$ ($n \in \mathbb{N}$);
- e) 250 va 131; i) 63, 130 va 800; m) $n, n+2$ va $n+4$ ($n \in \mathbb{N}$)?

1.29. Sonlarning eng kichik umumiy karralisisini toping:

- a) 84, 42 va 21; f) 50, 125 va 175; j) 33, 36 va 48;
b) 70, 80 va 90; g) 48, 92 va 75; k) 100, 150 va 250;
d) 17, 51 va 289; h) 10, 21 va 3600; l) 80, 240 va 360;
e) 11, 12 va 13; i) 18, 19 va 24; m) 34, 51 va 65.

1.30. Sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini va eng kichik umumiy karralisisini toping (natijani kanonik ko‘rinishda yozing):

- a) $2^3 \cdot 3^2$ va 15; f) $7^2 \cdot 3$; 46 va 15;
b) $2^3 \cdot 3^4$ va 7; g) $3^2 \cdot 4$; 3·6 va 7·9;
d) 8, 13^2 va 5^2 ; h) $3^4 \cdot 11^2$ va 13^3 ;
e) $12^2 \cdot 15$ val; i) $11^4 \cdot 13^5$ va 100^4 .

1.31. $\tau(a)$ bilan $a \in \mathbb{N}$ ning hamma natural bo‘luvchilari sonini belgilaymiz. $a = p_1^{a_1} \cdot p_2^{a_2} \cdot p_3^{a_3} \cdots p_n^{a_n}$ bo‘lsa, $\tau(a) = (\alpha_1 + 1)(\alpha_2 + 1) \cdots (\alpha_n + 1)$ bo‘ladi. Quyidagilarni toping:

- a) $\tau(81)$; f) $\tau(400)$; j) $\tau(2^3 \cdot 6 \cdot 7)$; n) $\tau(11 \cdot 13 \cdot 17)$;
b) $\tau(91)$; g) $\tau(680)$; k) $\tau(2^3 \cdot 3^2 \cdot 5)$; o) $\tau(19^2 \cdot 23 \cdot 29)$;
d) $\tau(512)$; h) $\tau(13860)$; l) $\tau(4^2 \cdot 6 \cdot 15)$; p) $\tau(121 \cdot 11^2)$;
e) $\tau(1001)$; i) $\tau(13800)$; m) $\tau(13 \cdot 100 \cdot 55)$; q) $\tau(144 \cdot 11^3)$.

1.32. Sonlarning umumiy bo‘luvchisi nechta:

- a) 18 va 54; f) 63 va 72; j) 150 va 180;
b) 42 va 56; g) 120 va 96; k) 12, 18 va 30;
d) 96 va 92; h) 102 va 170; l) 54, 90 va 162;
e) 84 va 120; i) 26, 65 va 130; m) 40, 60 va 100?

1.33. Sonlarning umumiy bo‘luvchilarini toping:

- a) $13 \cdot 17$ va $13^2 \cdot 17 \cdot 19$; b) $17 \cdot 19 \cdot 23$ va $17^4 \cdot 19 \cdot 23^8 \cdot 1849$.

1.34. A={100,15,200,300} va A={150,300,450} to‘plamlar umumiy elementlarining umumiy bo‘luvchilari nechta?

1.35. Hisoblang:

- a) $\tau(\tau(\text{EKUB}(\text{EKUK}(250;500);100)))$;
b) $\text{EKUB}((100); \tau(\text{EKUB}(25;5)) + \tau(\text{EKUK}(10;35)))$;
v) $\text{EKUK}(\text{EKUK}(\tau(144);51);18) - \tau(42)$;
g) $\tau(18 \cdot 91 + 15(\text{YEOA}(10;21))) \cdot \tau(142)$.

Yevklid algoritmini tadbiq etishga doir misollar

1.36. Sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini toping:

- a) 8104 va 5602; f) 187 va 180; j) 795 va 2585;
b) 5555 va 11110; g) 2165 va 3556; k) 42628 va 33124;
d) 980 va 100; h) 5400 va 8400; l) 71004 va 154452;
e) 5345 va 4856; i) 78999 va 80000; m) 1000 va 999.

1.37. Quyidagi sonlar o'zaro tubmi:

- a) 60 va 72; b) 55 va 71; d) 732 va 648; e) 111 va 11?

1.38. $EKUB(a;b)$ - $EKUK(a;b)=a \cdot b$ ($a \in N$, $b \in N$) tenglikdan foydalanib, quyidagi sonlarning eng kichik umumiy karralisisini toping:

- a) 821 va 934 ; f) 28 va 947 ; j) 75 va 1853 ;
b) 743 va 907 ; g) 56 va 953 ; k) 23 va 1785 ;
d) 109 va 1005 ; h) 419 va 854 ; l) 113 va 9881;
e) 827 va 953 ; i) 887 va 6663 ; m) 875 va 1346.

1.39. Sonlarning o'zaro tub ekanligini isbotlang:

- a) 911 va 130177 ; b) 811 va 10403.

1.40. Hisoblang: $\tau(EKUB(991;659;647+367))$.

2-§. BUTUN SONLAR

Hisoblang:

- 2.1. $143+(-42+85-52) \cdot 9-124$;
2.2. $-56 \cdot ((-43+54)-65; 5-82)$;
2.3. $-53 \cdot (44+86-200 \cdot 5+300:(-6))$;
2.4. $660:(-88+44+92:2)+840:(-3)$;
2.5. $48 \cdot (-86 \cdot 2-95)+(-842) \cdot 31$.

Qoldiqli bo'lishga doir misollar

2.6. a ni b ga qoldiqli bo'ling:

- a) $a=70$, $b=3$; d) $a=200$, $b=17$;
b) $a=180$, $b=9$; e) $a=76$, $b=9$.

2.7. a ni b ga qoldiqli bo'ling:

- a) $a=5$, $b=9$; d) $a=9$, $b=18$;
b) $a=11$, $b=23$; e) $a=4$, $b=75$.


2.8. a ni b ga qoldiqli bo'ling:

- a) $a=-81$, $b=75$; f) $a=-33$, $b=7$; j) $a=15$, $b=43$;
b) $a=-5$, $b=9$; g) $a=-48$, $b=6$; k) $a=27$, $b=9$;
d) $a=-41$, $b=7$; h) $a=-6$, $b=48$; l) $a=33$, $b=32$;
e) $a=-35$, $b=7$; i) $a=-8$, $b=24$; m) $a=108$, $b=36$.

2.9. $a \in N$, $b \in N$ bo'lib, $a=bq+r$ ($q \in Z$, $r \in N$, $0 \leq r < b$) bo'lsin. - a ni b ga bo'lishda hosil bo'ladigan to'liqsiz bo'linma q , ni va qoldiq r , ni toping.

2.10. a ni b ga bo'lishdagi qoldiqni toping:

- a) $a=81932$, $b=9$; f) $a=4341$, $b=3$; j) $a=111$, $b=11$;
b) $a=25$, $b=75$; g) $a=144$, $b=6$; k) $a=-11$, $b=111$;
d) $a=-4$, $b=49$; h) $a=-15$, $b=11$; l) $a=-9$, $b=3$;
e) $a=-49$, $b=4$; i) $a=-13$, $b=35$; m) $a=-3$, $b=9$.



2.11. Quyidagi tenglik qoldiqqli bo'lishni ifodalaydimi:

- a) $21=3 \cdot 4+9$; f) $26=4 \cdot 5+6$; j) $81=81 \cdot 0+81$;
b) $-18=9 \cdot -2-36$; g) $-15=11 \cdot (-2)+7$; k) $-40=4 \cdot (-11)+4$;
d) $35=2 \cdot 17+1$; h) $-49=7 \cdot 8+(-7)$; l) $-35=(-7) \cdot 8+21$;
e) $11=2 \cdot 4+3$; i) $84=2 \cdot 42$; m) $49=4 \cdot 11+5$?

Taqqoslama va uning ayrim tadbiqlariga doir misollar

$a \in \mathbb{Z}$, $b \in \mathbb{Z}$, $m \in \mathbb{N}$ bo'lsin. a va b larni m ga bo'lishda bir xil qoldiq hosil bo'lsa, a va b sonlari m modul bo'yicha taqqoslanadi (m modul bo'yicha teng qoldiqqli) deyiladi.

a va b lar m modul bo'yicha taqqoslanuvchi ekanligi quyidagicha helgilanadi:

$$a \equiv b \pmod{m}. \quad (1)$$

(1) munosabat taqqoslama deb ataladi.

1 - t e o r e m a. $a \equiv b \pmod{m} \Rightarrow (a-b) \equiv 0 \pmod{m}$.

2 - t e o r e m a. $(a-b) \equiv 0 \pmod{m} \Rightarrow a \equiv b \pmod{m}$.

3 - t e o r e m a. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ va $c \equiv d \pmod{m}$ bo'lsa, quyidagi taqqoslamalar to'g'ri bo'ladi:

$$a+c \equiv b+d \pmod{m};$$

$$a-c \equiv b-d \pmod{m};$$

$$a \cdot c \equiv b \cdot d \pmod{m}.$$

Natijalar: 1. $a \equiv a \pmod{m}$;

2. $a \equiv b \pmod{m} \Rightarrow a^n \equiv b^n \pmod{m}$, $n \in \mathbb{N}$;

3. $a \equiv b \pmod{m} \Rightarrow c \cdot a \equiv c \cdot b \pmod{m}$, $c \in \mathbb{Z}$

4. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ va $c \equiv d \pmod{m}$ bo'lsa,

ixtiyoriy $n_1, n_2 \in \mathbb{Z}$ uchun $n_1 a + n_2 c = n_1 b + n_2 d \pmod{m}$ bo'ladi.

1- m i s o l. $2222^{5555} 3^{5555}$ sonini 7 ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni toping.

Yechish. 2222 ni 7 ga qoldiqqli bo'lamiz: $2222 = 7 \cdot 317 + 3$. Bundan, $2222 = 3 \pmod{7}$ ni olamiz. Hosil bo'lgan taqqoslamaning har ikki tomonini 5555 — darajaga ko'taramiz (2-natija):

$$2222^{5555} 3^{5555} \pmod{7}.$$

Bu taqqoslama izlanayotgan qoldiq 3^{5555} ni 7 ga bo'lishdan hosil bo'ladigan qoldiq bilan bir xil ekanligini ko'rsatadi. 3^{5555} ni 7 ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni topamiz. Buning uchun 3 ning dastlabki bir nechta darajalarini 7 ga bo'lishda qanday qoldiqlar hosil bo'lishini kuzataylik:

$3^1 \equiv 3 \pmod{7}$; $3^2 \equiv 3 \cdot 3 \equiv 9 \equiv 2 \pmod{7}$; $3^3 \equiv 2 \cdot 3 \equiv 6 \pmod{7}$;
 $3^4 \equiv 6 \cdot 3 \equiv 18 \equiv 4 \pmod{7}$; $3^5 \equiv 4 \cdot 3 \equiv 12 \equiv 5 \pmod{7}$;
 $3^6 \equiv 5 \cdot 3 \equiv 15 \equiv 1 \pmod{7}$.
 3⁶≡1(mod 7) ga ega bo'dik. Bundan, 3^{6k}≡1^k(mod 7) $k \in N$
 (2) ni olamiz.

Endi 5555 ni 6 ga bo'lamiz: $5555 = 6 \cdot 925 + 5$.

U holda $3^{5555} = 3^{6 \cdot 925 + 5} = 3^6 \cdot 3^{925} \cdot 3^5 \equiv 1 \cdot 3^5 \equiv 5 \pmod{7}$.

Shunday qilib, izlanayotgan qoldiq 5 ga teng.

2 - m i s o l. $2^{60} + 7^{30}$ soni 13 ga bo'linadi. Shuni isbotlang.

I s b o t. $2^4 \equiv 13+3$ va $7^2 \equiv 49 \equiv 13 \cdot 4 - 3$ bo'lgani uchun $2^4 \equiv 3 \pmod{13}$, $7^2 \equiv -3 \pmod{13}$ larga egamiz. Oxirgi har bir taqqoslamani 15 darajaga ko'tarib, ularni hadma-had qo'shamiz: $2^{60} + 7^{30} \equiv 0 \pmod{13}$.

Demak, $2^{60} + 7^{30}$ soni 13 ga bo'linadi.

2.12. Taqqoslama to'g'rimi:

- a) $125 \equiv -35 \pmod{4}$; f) $113 \equiv 13 \pmod{100}$;
- b) $44 \equiv -32 \pmod{25}$; g) $842 \equiv 42 \pmod{-5}$;
- d) $-58 \equiv 11 \pmod{5}$; h) $31 \equiv -20 \pmod{17}$;
- e) $111 \equiv 13 \pmod{ }$; i) $1 \equiv 18 \pmod{0}$?

2.13. $n \in \{3, 5, 9\}$ bo'lsin. n ning qaysi qiymatlarida taqqoslama to'g'ri bo'ladi:

- a) $33 \equiv 3 \pmod{n}$; f) $43 \equiv -2 \pmod{n}$;
- b) $134 \equiv -25 \pmod{n}$; g) $-121 \equiv 13 \pmod{n}$;
- d) $-223 \equiv 41 \pmod{n}$; h) $155 \equiv 11 \pmod{n}$;
- e) $34 \equiv 72 \pmod{n}$; i) $-48 \equiv 11 \pmod{n}$?

2.14. 5^{20} ni 24 ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni toping.

2.15. 3333^{6666} ni 5 ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni toping.

2.16. 7^{77} ning oxirgi raqamini toping.

Y e c h i s h. 7 ning dastlabki bir nechta darajalarining oxirgi raqamini kuzatamiz:

$7^1 \equiv 7$; $7^5 \equiv *7$; Takrorlanish sodir bo'ldi.

$7^2 \equiv 49$; $7^6 \equiv *9$; (qadam 4 ga teng).

$7^3 \equiv *3$; $7^7 \equiv *3$; Kuzatuv quyidagi xulosani chiqarishga $7^4 \equiv *1$; $7^8 \equiv *1$. imkon beradi.

$$7^n = \begin{cases} *7, & \text{agar } n=1 \pmod{4}, \\ *9, & \text{agar } n=2 \pmod{4}, \\ *3, & \text{agar } n=3 \pmod{4}, \\ *1, & \text{agar } n=0 \pmod{4}. \end{cases} \quad (3)$$

Endi $n=7^{77}$ ni 4 ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni aniqlaymiz:

$$7^1 \equiv 3 \pmod{4}; \quad 7^2 \equiv 3 \cdot 7 \equiv 1 \pmod{4}; \quad 7^{2k} \equiv 1 \pmod{4};$$

$$7^{77} = 7^{2 \cdot 38 + 1} = 7^{2 \cdot 38} \cdot 7 \equiv 1 \cdot 7 \equiv 3 \pmod{4}.$$

$7^{77} \equiv 3 \pmod{4}$ bo'lgani uchun, (3) ga asosan $7^{77} \equiv *3$.

Shunday qilib, oxirgi raqam 3 ekan.

2.17. Sonning oxirgi raqamini toping:

$$a) 8^{887}; \quad f) 555^{222222}; \quad j) 10001^{9n}, n \in \mathbb{N};$$

$$b) 113^{891}; \quad g) 333^{444555}; \quad k) 1005^{1005n}, n \in \mathbb{Z};$$

$$d) 144^{5555}; \quad h) 1111^{999}; \quad l) 8^{895};$$

$$e) 2002^{995}; \quad i) 999^{2888999}; \quad m) 6^{789};$$

2.18. Ixtiyoriy n natural son uchun $n^5 - n$ soni 5 ga bo'linishini isbotlang.

Isbot: n - ixtiyoriy natural son bo'lsin. n ni 5 ga bo'lamiz.

Agar $n \equiv 0 \pmod{5}$ bo'lsa, $n^5 - n \equiv 0^5 - 0 \equiv 0 \pmod{5}$ bo'ladi.

Agar $n \equiv 1 \pmod{5}$ bo'lsa, $n^5 - n \equiv 1^5 - 1 \equiv 0 \pmod{5}$ bo'ladi.

Agar $n \equiv 2 \pmod{5}$ bo'lsa, $n^5 - n \equiv 2^5 - 2 \equiv 30 \equiv 0 \pmod{5}$ bo'ladi.

Agar $n \equiv 3 \pmod{5}$ bo'lsa, $n^5 - n \equiv 3^5 - 3 \equiv 240 \equiv 0 \pmod{5}$ bo'ladi.

Agar $n \equiv 4 \pmod{5}$ bo'lsa, $n^5 - n \equiv 4^5 - 4 \equiv 1020 \equiv 0 \pmod{5}$ bo'ladi. n ning har qanday qiymatida, $n^5 - n \equiv 0 \pmod{5}$ ekanini ko'ramiz. Demak, $\forall n \in \mathbb{N}$ uchun $(n^5 - n)/5$ ga qoldiqsiz bo'linadi.

2.19. n ning barcha butun qiymatlarida $(n^3 + 11n)$ soni 6 ga qoldiqsiz bo'linishini isbotlang.

2.20. n ning barcha butun qiymatlarida $n^2 - n$ soni 3 ga qoldiqsiz bo'linishini isbotlang.

2.21. $n^2 + 1$ soni n ning ixtiyoriy butun qiymatida 3 ga bo'linmasligini isbotlang.

2.22. n ning barcha natural qiymatlarida $n(n^2 + 1)$ soni 7 ga bo'linishini isbotlang.

2.23. $12^{2n+1} + 11^{2n+2}$ soni n ning har qanday natural qaymatida 133 ga bo'linishini isbotlang.

2.24. p soni 3 dan katta tub soni bo'lsa, $p^2 - 1$ soni 24 ga bo'linadi. Isbotlang.

2.25. p va q sonlari 3 dan katta tub sonlar bo'lsa, $p^2 - q^2$ soni 24 ga bo'linadi. Isbotlang.

Matematik induksiya metodi yordamida sonlarning bo'linishini isbotlashga doir misollar

Misol. n ning barcha natural qiymatlari $4^n + 15n - 1$ soni 9 ga bo'linadi. Isbotlang.

Isbot. $n=1$ da $4^n + 15n - 1 = 18$ soni 9 ga bo'linadi.

$4^n + 15n - 1$ soni $n=k$ da 9 ga bo'linadi deb faraz qilamiz va $n=k+1$ bo'lganda ham $4^n + 15n - 1$ soni 9 ga bo'linishini ko'rsatamiz:

$$\begin{aligned} n=k+1 \text{ bo'lsa, } & 4^n + 15n - 1 = 4^{k+1} + 15(k+1) - 1 = 4 \cdot 4^k + 15k + 14 = \\ & = 4(4^k + 15k - 1) + 60k + 4 + 15k + 14 = 4(4^k + 15k - 1) + 45k + 18 = \\ & = 4(4^k + 15k - 1) + 9(2 - 5k) \text{ ga ega bo'lamiz.} \end{aligned}$$

Birinchi qo'shiluvchi qilingan farazga ko'ra 9 ga bo'linadi. Ikkinci qo'shiluvchi ham 9 ga bo'lingani uchun ularning yig'indisi ham 9 ga bo'linadi. Demak $4^n + 15n - 1$ soni n ning barcha natural qiymatlarida 9 ga bo'linadi. Shu bilan da'vo isbot bo'ldi.

2.26. $4^n + 15n - 1$ soni n ning barcha natural qiymatlarida 3 ga bo'linishini isbotlang.

2.27. $n^3 + 5n$ soni ixtiyoriy natural n da 6 ga bo'linishini isbotlang.

2.28. $7^n + 3n - 1$ ning 9 ga bo'linishini isbotlang, bunda $n \in \mathbb{N}$.

2.29. $6^{2n} + 19^n - 2^{n+1}$ ning 17 ga bo'linishini isbotlang, bunda $n \in \mathbb{N}$.

2.30. Barcha $n \in \mathbb{N}$ lar uchun $(2n-1)^3 - (2n-1)$ sonining 24 ga bo'linishini isbotlang.

2.31. $n^3 + 11n$ soni ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}$ da 6 ga bo'linishini isbotlang.

2.32. $n^2(n^2 + 1)$ conining 4 ga bo'linishini isbotlang, bunda $n \in \mathbb{N}$.

2.33. $n(2n+1)(7n+1)$ soni 6 ga bo'linishini isbotlang ($n \in \mathbb{N}$).

2.34. $2^n + 2^{n+1}$ soni 6 ga bo'linishini isbotlang ($n \in \mathbb{N}$).

2.35. $n^2(n^2 - 1)$ soni 12 ga bo'linishini isbotlang ($n \in \mathbb{N}$).

Oddiy kasrlar va ular ustida amallar

3.1. Amallarni bajaring:

- a) $\frac{8}{45} + \frac{16}{45}$; g) $\frac{17}{18} + \frac{13}{36}$; i) $\frac{8}{15} \cdot \frac{19}{151}$;
 b) $\frac{17}{48} - \frac{7}{48}$; h) $\frac{32}{15} - \frac{17}{148}$; m) $\frac{12}{121} \cdot \frac{11}{144}$;
 d) $\frac{17}{35} + \frac{18}{35}$; i) $\frac{15}{17} - \frac{7}{18}$; n) $\frac{9}{113} \cdot \frac{15}{101}$;
 e) $\frac{18}{69} + \frac{59}{69}$; j) $\frac{37}{113} - \frac{9}{131}$; o) $\frac{19}{38} \cdot \frac{15}{49}$;
 f) $\frac{1112}{150} - \frac{338}{150}$; k) $\frac{1}{151} + \frac{9}{153}$; p) $\frac{121}{49} : \frac{11}{7}$.

3.2. Ifodaning qiymatini toping:

- a) $(45\frac{1}{2} - 2\frac{3}{8}) - (5\frac{5}{6} + 6\frac{3}{4}) + (10\frac{2}{3} - 5\frac{5}{8})$;
 b) $(36\frac{4}{5} - 12\frac{3}{10}) - (4\frac{2}{15} + 1\frac{1}{30}) + (20\frac{11}{12} - 10\frac{3}{8} - \frac{3}{16} - 3\frac{1}{48})$;
 d) $(12\frac{1}{2} - 3\frac{5}{6}) - (2\frac{8}{9} + 1\frac{4}{5}) - (5\frac{5}{8} - 4\frac{3}{4}) - (6\frac{9}{40} - 5\frac{11}{90})$;
 e) $56\frac{2}{21} - [(1\frac{5}{6} + 2\frac{13}{14}) + (27\frac{13}{30} - (15\frac{5}{12} - 12\frac{13}{20}))]$;
 f) $\frac{4}{5} \cdot \frac{3}{8} \cdot \frac{3}{5} \cdot \frac{2}{3}$; g) $3\frac{1}{3} \cdot 3\frac{13}{53} \cdot 3\frac{1}{88}$;
 h) $5\frac{1}{4} : 1\frac{2}{7} : 5\frac{1}{2} \cdot \frac{3}{22}$; i) $(1\frac{11}{24} + 1\frac{13}{56}) \cdot 9 : 1\frac{2}{5}$;
 j) $\frac{8\frac{1}{2}}{15 : \frac{5}{17}}$; k) $\frac{28 : \frac{7}{29}}{\frac{7}{9} : \frac{1}{9}}$; l) $\frac{4\frac{4}{5} : \frac{4}{17}}{3\frac{2}{5}}$;
 m) $8\frac{13}{16} \cdot \frac{47}{64} : 1\frac{1}{35} : 3\frac{1}{2}$.

Amallarni bajaring:

3.3. a) $2 : \frac{3}{5} + \frac{3}{5} : 2 + 1 \frac{1}{2} : 6 + 6 : \frac{1}{2}$;

b) $6 \frac{1}{4} \cdot 8 - 3 \frac{2}{3} \cdot 5 \frac{1}{2} + 2 \frac{2}{5} \cdot 4 \frac{7}{12}$;

d) $2 \frac{1}{2} \cdot 48 - 3 \frac{3}{8} : \frac{1}{18} + 5 \frac{5}{12} : \frac{7}{36}$;

e) $13 \frac{1}{2} : 1 \frac{1}{3} + 16 \frac{1}{2} \cdot 1 \frac{5}{11} + 19 \frac{1}{4} : \frac{4}{25}$.

3.4. a) $\left(3 \frac{1}{2} - 2 \frac{2}{3} + 5 \frac{5}{6} + 4 \frac{3}{5}\right) \cdot 24$;

b) $\left(5 \frac{5}{8} + 18 \frac{1}{2} - 7 \frac{5}{24}\right) : 16 \frac{2}{3}$;

d) $\left(12 \frac{5}{12} + 1 \frac{2}{3} - 3 \frac{5}{6} + 2 \frac{3}{4}\right) : \left(2 \frac{1}{2} \cdot \frac{2}{5} - \frac{7}{9}\right)$;

e) $48 \frac{3}{8} \cdot 6 \frac{3}{4} \cdot \frac{5}{12} - 2 \frac{5}{6} + 1 \frac{75}{94} \cdot \left(1 \frac{1}{2} \cdot \frac{1}{3} - 13 : 26\right)$.

3.5. a) $\left(\frac{5}{7} \cdot 2 \frac{1}{3} \cdot \frac{5}{6} - 1\right) : \left(1 - \frac{7}{8} \cdot 1 \frac{3}{5} \cdot \frac{3}{14}\right)$;

b) $\left(8 \frac{7}{15} - 3 \frac{3}{4} + 4 \frac{2}{3} - 8 \frac{7}{60}\right) : \left(4 \frac{1}{4} - 2 \frac{3}{4}\right)$;

d) $\left(1 \frac{8}{13} \cdot \frac{13}{42} + 5 \frac{5}{7} : \frac{8}{21}\right) : \left(8 \frac{1}{8} + 3 \frac{1}{3}\right)$;

e) $2 \frac{3}{5} : 6 \frac{1}{15} + 1 \frac{1}{14} - 1 \frac{39}{73} \cdot \left(5 \frac{5}{7} - 5 \frac{5}{16}\right)$.

3.6. a)
$$\frac{12 \frac{4}{5} \cdot 3 \frac{3}{4} - 4 \frac{4}{11} \cdot 4 \frac{1}{8}}{11 \frac{2}{3} : 4 \frac{4}{7}}$$
;

b)
$$\frac{28 \frac{4}{5} : 13 \frac{5}{7} + 6 \frac{3}{5} : \frac{2}{3}}{1 \frac{11}{16} : 2 \frac{1}{44}}$$
;

d)
$$\frac{2 \frac{3}{8} : \frac{3}{4} + 24 \frac{7}{9}}{7 \frac{1}{8} - 175 \frac{4}{5} : 24}$$
;

e)
$$\frac{\left(1 \frac{1}{8} + 2 \frac{2}{3} + 3 \frac{3}{4}\right) \cdot 3 \frac{3}{5}}{14 - 15 \frac{1}{8} : 2 \frac{1}{5}}$$
;

$$\text{f)} \frac{\frac{14}{5} - 6\frac{11}{12} + 12\frac{3}{4} - 7\frac{2}{15}}{10\frac{2}{3} - 3\frac{11}{12}} + 2\frac{2}{3} \cdot 3\frac{3}{4};$$

$$\text{g)} \frac{\frac{1}{16} \cdot 3\frac{1}{5} + 16\frac{2}{3} - 9 : 2\frac{2}{5}}{17\frac{7}{12} - 6\frac{1}{3}} + \frac{12\frac{2}{3} - 61\frac{1}{2} : 6\frac{3}{4}}{2\frac{2}{3}}.$$

Quyidagi masalalarini tenglama tuzib yeching:

3.7. a) Ikkii sonning yig'indisi $7\frac{1}{2}$ ga teng. Sonlaridan biri ikkinchisidan $4\frac{4}{5}$ ta ortiq. Shu sonlarni toping;

b) Uchta sonning yig'indisi $35\frac{2}{3}$ ga teng. Birinchi son ikkinchisidan $5\frac{1}{3}$ ta, uchinchisidan esa $3\frac{5}{6}$ ta ortiq. Shu sonlarni toping.

3.8. Uy uchta xonadan iborat. Birinchi xonaning yuzasi $24\frac{3}{8}$ m^2 bo'lib, uy yuzasining $\frac{13}{36}$ qismini tashkil etadi. Ikkinci xonaning yuzasi uchinchi xona yuzasiga qaraganda $8\frac{1}{8}$ m^2 ortiq. Ikkinci xonaning yuzasini toping.

3.9. Uch bo'lak temirning umumiy og'irligi.

$17\frac{1}{4}$ kg. Agar birinchi bo'lakning og'irligini $1\frac{1}{2}$ kg, ikkinchi bo'lakning og'irligini esa $2\frac{1}{4}$ kg kamaytirsak, uchta bo'lak temirning hammasi bir xil og'irlikda bo'lib qoladi. Har bir bo'lakning dastlabki og'irligini toping.

3.10. a) Ikkii sonning yig'indisi $8\frac{11}{14}$ ga, ayirmasi esa $2\frac{3}{7}$ ga teng. Shu sonlarni toping;

b) motorli qayiq daryo oqimi bo'ylab $15\frac{1}{2}$ km/soat tezlik bilan, oqimiga qarshi esa $8\frac{1}{4}$ km/soat bilan yuradi.

Daryo oqiminining tezligini toping.

3.11. Ota o'g'lidan 24 yosh katta. O'g'lining yoshi otasi yoshining $\frac{5}{13}$ qismiga teng. Ota necha yoshda? O'g'il-chi?

3.12. Kasrning maxraji uning suratidan 11 ta ortiq. Agar kasrning maxraji uning suratidan $3\frac{3}{4}$ marta ortiq bo'lsa, shu kasrni toping.

3.13. Ikki sonning yig'indisi 16 ga teng. Agar ikkinchi sonning $\frac{1}{3}$ qismi birinchi sonning $\frac{1}{5}$ qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.

3.14. Belgilangan ishni birinchi brigada 36 kunda, ikkinchi brigada esa 45 kunda bajaradi. Ikkita brigada birga ishlasa, shu ishni necha kunda bajaradi?

3.15. Ikki shahar orasidagi masofani yo'lovchi poezdi 10 soatda, yuk poezdi esa 15 soatda bosib o'tadi. Ular bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqsa, necha soatdan keyin uchrashadi?

3.16. Birinchi quvur basseynni 5 soatda to'ldiradi. Ikkinci quvur to'la basseynni 6 soatda bo'shatadi. Agar ikkala quvur, bir vaqtda ochilsa, basseyn necha soatdan keyin to'ladi (Basseyen bo'sh edi, deb hisoblansin).

O'nli kasrlar va ular ustida amallar

Amallarni bajaring:

3.17. a) $4,735:0,5+14,95:1,3-2,121:0,7$;

b) $589,72:16-18,305:7+0,0567:4$;

d) $3,006-0,3417:34-0,875:125$;

e) $22,5:3,75+208,45+2,5:0,004$.

3.18. a) $(0,1955+0,187):0,085$;

b) $15,76267:(100,6+42,697)$;

d) $(86,9+667,6):(37,1+13,2)$;

e) $(9,09-9,0252)-(25,007-12,507)$.

3.19. a) $(0,008+0,992)\cdot(5\cdot0,6-1,4)$;

b) $(0,93+0,07)\cdot(0,93-0,805)$;

d) $(50000-1397,3):(20,4+33,603)$;

e) $(2779,6+8024,4):(1,98+2,02)$.

3.20. a)
$$\frac{4,06 \cdot 0,0058 + 3,3044895 - (0,7584 : 2,37 + 0,0003 : 8)}{0,03625 \cdot 80 - 2,43};$$

b)
$$\frac{2,045 \cdot 0,033 + 10,518395 - 0,464774 : 0,0562}{0,003092 : 0,0001 - 5,188};$$

d)
$$\frac{57,24 \cdot 3,55 + 430,728}{2,7 \cdot 1,88 - 1,336} + \frac{127,18 \cdot 4,35 + 14,067}{18 + 2,1492 : 3,582};$$

e)
$$52 : \frac{6 : (0,4 - 0,2)}{2,5 \cdot (0,8 + 1,2)} + \frac{(34,06 - 33,81) \cdot 4}{6,48 : (28,57 - 25,15)} - 8.$$

3.21. Ikki sonning o'rta arifmetigi 36,4. Bu sonlarning biri 36,8. Ikkinci sonni toping.

3.22. Ikkita kema 3500 t yukni mo'ljalga yetkazishdi. Agar birinchi kema ikkinchisiga qaraganda 1,5 marta ortiq yukni mo'ljalga yetkazgan bo'lsa, har bir kema necha tonna yukni mo'ljalga yetkazgan?

3.23. Motorli qayiq oqim bo'yicha 14,5 km/soat tezlik bilan, oqimga qarshi esa 9,5 km/soat tezlik bilan harakat qiladi. Motorli qayiqning turg'un suvdagi tezligini va oqimning tezligini toping.

3.24. Kema oqim bo'yicha 4 soatda 85,6 km, oqimga qarshi 3 soatda 46,2 km yurdi. Kemaning turg'un suvdagi tezligini va oqimning tezligini toping.

3.25. Oralaridagi masofa 32,4 km bo'lgan ikkita aholi punktidan bir vaqtida bir-biriga qarab mototsiklchi va velosipedchi yo'lga chiqdi. Agar mototsiklchining tezligi velosipedchining tezlididan 4 marta ortiq bo'lsa, ular uchrashguncha qanchadan yo'l bosadi?

3.26. Ikkita kema oralaridagi masofa 501,9 km bo'lgan ikkita portdan bir-biriga qarab bir vaqtida yo'lga chiqishdi. Agar birinchi kemaning tezligi 25,5 km/soat, ikkinchisini esa 22,3 km/soat bo'lsa, ular necha soatdan keyin uchrashadi?

D a v r i y k a s r l a r

3.27. Oddiy kasr maxrajini tub ko'paytuvchilarga ajratish bilan uni o'nli kasrga aylantiring:

$$\frac{1}{2}; \frac{1}{5}; \frac{1}{4}; \frac{3}{4}; \frac{1}{8}; \frac{5}{16}; \frac{7}{25}; \frac{23}{25}; \frac{6}{125}; 3\frac{9}{40}; 11\frac{7}{80};$$

$$4\frac{3}{200}; 4\frac{31}{500}.$$

3.28. Oddiy kasr suratini uning maxrajiga bo'lish yordamida oddiy kasrni o'nli kasrga aylantiring:

a) $\frac{9}{15}; \frac{18}{252}; \frac{11}{28}; \frac{39}{65}; \frac{30}{75}; \frac{6}{48}; 2\frac{3}{48}; 5\frac{192}{575}; 12\frac{177}{1500};$

b) $\frac{8}{5}; \frac{25}{16}; \frac{47}{32}; \frac{263}{250}; \frac{312}{125}; 1\frac{711}{625}; 5\frac{2541}{2000};$

$$4\frac{7359}{5000}; 3\frac{23}{25000}.$$

3.29. Quyidagi sonlar berilgan:

$$\frac{1}{3}; \frac{1}{4}; \frac{1}{6}; \frac{1}{12}; \frac{3}{32}; \frac{4}{21}; \frac{5}{54}; \frac{11}{90}; 12\frac{7}{50}; \frac{3}{6}; \frac{15}{45}; \frac{9}{27}.$$

a) Chekli o'nli kasrga aylanadigan sonlar to'plamini tuzing;

b) Cheksiz o'nli kasrga aylanadigan sonlar to'plamini tuzing.

3.30. Quyidagi sonlarni davriy o'nli kasr ko'rinishida yozing:

$$1; 1,4; \frac{7}{8}; \frac{13}{26}; \frac{81}{243}; \frac{15}{43}; \frac{71}{16}; \frac{1}{25}; \frac{15}{39}; \frac{41}{43}; 19.$$

3.31. Davriy o'nli kasrni oddiy kasrga aylantiring:

- | | | |
|--------------|--------------|------------------|
| a) 0,(3); | f) 13,0(48); | j) 2,(123); |
| b) 0,3(2); | g) 0,(4); | k) 2,333(45); |
| d) 0,71(23); | h) 0,(45); | l) 41,8519(504); |
| e) 11,(75); | i) 3,1(44); | m) 35,73(4845). |

3.32. Ifodaning qiymatini toping:

$$a) \frac{0,8333... - 0,4(6)}{1\frac{5}{6}} \cdot \frac{1,125 + 1,75 - 0,41(6)}{0,59};$$

$$b) \frac{\left(\frac{5}{8} + 2,708333...\right) : 2,5}{(1,3 + 0,7(6) + 0,(36)) \cdot \frac{110}{401}} \cdot \frac{1}{2};$$

$$d) \frac{\left(2\frac{38}{45} - \frac{1}{15}\right) : 13\frac{8}{9} + 3\frac{3}{65} \cdot 0,(26)}{(18,5 - 13,777...) \cdot \frac{1}{85}} \cdot 0,5;$$

$$e) \frac{\frac{3}{4} + 0,8(5) \cdot \frac{1}{2}}{9 : (0,9(23) - 0,7(9))} + \frac{41}{43}.$$

4-§. IRRATIONAL SONLAR

Ta'rif. Cheksiz davriy bo'lмаган о'nli kasrlar irratsional sonlар deyiladi.

I - m i s o l. 0,101001000100001000001... irratsional son ekanini isbotlang. (Birinchi birdan keyin bitta nol, ikkinchi birdan keyin ikkita nol va hokazo).

I s b o t. Berilgan kasr davriy va uning davri n ta raqamdan iborat deb faraz qilaylik (teskari faraz). $2n+1$ inchi 1 ni tanlaymiz. Bu birdan keyin $2n+1$ ta ketma-ket nollar keladi:

$$\dots \underline{100} \dots 0 \quad \boxed{0} \quad \underline{001} \dots \\ n \text{ ta} \qquad \qquad \qquad n \text{ ta}$$

Shu o'rtada turgan 0 ni qaraymiz. Bu nol biror davrning yo boshida, yoki ichida, yoki oxirida keladi. Bu hollarning hammasida bu davr ajratilgan nollardan tuzilgan «kesma»da to'la joylashadi. Demak, davr faqat nollardan tuzilgan. Bunday bo'lishi esa sonning tuzilishiga zid. Faraz noto'g'ri.

Javob: $a = \pm\sqrt{10}$.

$P_n(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0$ ko'phadni $x=c$ ga qoldiqli bo'lishning amaliy usullaridan biri Gorner sxemasi (usuli)dir.

Bu usulning mohiyati quyidagicha: $P(x)$ ko'phadni $x=c$ ga qoldiqli bo'lishda $Q_{n-1}(x) = b_0 x^{n-1} + b_1 x^{n-2} + \dots + b_{n-2} x + b_{n-1}$ ($b_0 \neq 0$) ko'phad va $r \in R$ qoldiq hosil bo'ladi. $b_0, b_1, \dots, b_{n-2}, b_{n-1}, r$ sonlarni quyidagi sxema yordamida topish mumkin:

	a_0	a_1	a_2	\dots	a_{n-2}	a_{n-1}	a_n
+	0	cb_0	cb_1	\dots	cb_{n-3}	cb_{n-2}	cb_{n-1}
c	$b_0 = a_0$	b_1	b_2	\dots	b_{n-2}	b_{n-1}	r

3 - мисол. $P_5(x)=2x^5-x^4-3x^3+x-3$ ни $x-3$ га qoldiqli bo'ling.

Yechish.

	2	-1	-3	0	1	-3
		3·2	3·5	3·12	3·36	3·109
$c=3$	2	5	12	36	109	324=r

Demak, $P_5(x)=(x-3)(2x^4+5x^3+12x^2+36x+109)+324$.

4 - мисол. $P_3(x)=2x^3-x^2+3x+2$ ни $x+1$ га qoldiqli bo'ling.

Yechish.

	2	-1	3	2
		-1·2	-1·(-3)	-1·6
$c=-1$	2	-3	6	-4=r

$P_3(x)=(x+1)(2x^2-3x+6)-4$.

Bezu teoremasidan $P_n(x)$ ko'phadni $ax+b$ ko'rinishda-
gi ikkihadga bo'lishda hosil bo'ladigan r qoldiq $P_n\left(-\frac{b}{a}\right)$
ga teng bo'lishligi kelib chiqadi.

5 - мисол. $P_3(x)=x^3-3x^2+5x+7$ ни $2x+1$ га bo'lishdan
hosil bo'lgan qoldiqni toping.

Yechish. Qoldiq r = $P_3\left(-\frac{1}{2}\right) = \left(-\frac{1}{2}\right)^3 - 3 \cdot \left(-\frac{1}{2}\right)^2 + 5 \cdot \left(\frac{1}{2}\right) + 7 = \frac{29}{8}$ ga teng.

6.1. $P(x)$ ko'phad $D(x)$ ko'phadga bo'linadimi:

a) $P(x)=x^{100}-3x+2$, $D(x)=x-1$;

b) $P(x)=x^{100}-3x+2$, $D(x)=x+1$;

d) $P(x)=x^{100}-3x^2+2$, $D(x)=x^2-1$;

e) $P(x)=x^{100}-3x+2$, $D(x)=2x^2-1$?

6.2. $x^{2n-1}+a^{2n-1}$ ko'phad $x+a$ ga bo'linishini isbotlang,
bunda $a \neq 0$, $n \in \mathbb{N}$.

6.3. x^n-a^n ko'phad $x-a$ ga bo'linishini isbotlang, bunda $a \neq 0$, $n \in \mathbb{N}$.

6.4. a) x^4-3x^2+1 ni $x-2$ ga; b) $x^5-4x^3+x^2$ ni $x-3$ ga;

d) $x^5-4x^3-x^2+1$ ni $2x-3$ ga; e) $x^4-3x^3+x^2-1$ ni $3x-4$ ga
bo'lishdagi qoldiqni toping.

6.5. m ning qanday qiymatlarida $3x^4-2x^3-m^2x-2$ ko'phad
 $x-2$ ga qoldiqsiz bo'linadi?

6.6. m ning qanday qiymatlarida $3x^3 - 4x^2 - mx - 1$ ko'phad $x+1$ ga bo'linmaydi?

6.7. a va b ning qanday qiymatlari $2x^4 + ax^3 + bx - 2$ ko'phad $x^2 - x - 2$ uchhadga qoldiqsiz bo'linadi?

6.8*. m va n ning qanday qiymatlarida $x^3 + mx + n$ ko'phad $x^2 + 3x + 10$ uchhadga qoldiqsiz bo'linadi?

6.9. $P(x)$ ko'phadni $x-1$ ga bo'lishda qoldiq 3, $x-2$ ga bo'lishda esa qoldiq 5 hosil bo'ladi. $P(x)$ ni $x^2 - 3x + 2$ ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni toping.

6.10. $P(x)$ ko'phadni $x-a$ ga bo'lishda r_1 qoldiq, $x-b$ ga bo'lishda esa r_2 qoldiq hosil bo'ladi ($a \neq b$). $P(x)$ ni $x^2 - (a+b)x + ab$ ga bo'lishda hosil bo'ladigan qoldiqni toping.

6.11. Gorner sxemasasi yordamida $P(x)$ ko'phadni $D(x)$ ikkihadga qoldiqli bo'ling:

- a) $P(x)=x^2-5x-7$, $D(x)=x-1$;
- b) $P(x)=x^3-3x^2+5x-6$, $D(x)=x-2$;
- d) $P(x)=2x^4-3x^2-5x+2$, $D(x)=x+1$;
- e) $P(x)=3x^5-4x^3-x+1$, $D(x)=x+3$;
- f) $P(x)=3x^6-4x^5-x^4+x^3-x^2-1$, $D(x)=x-3$;
- g) $P(x)=x^5-x^2-5x-6$, $D(x)=x-2$;
- h) $P(x)=x^4-x^3+2x^2-5x-42$, $D(x)=x+2$;
- i) $P(x)=x^5-4x^2+5x-3$, $D(x)=x-3$;
- j) $P(x)=x^4-3x^3+2x^2-4x-1$, $D(x)=x+4$;
- k) $P(x)=x^5-4x^3-3x^2+1$, $D(x)=x-4$;
- l) $P(x)=x^6-5x^4+3x^2-5x+6$, $D(x)=x+2$;
- m) $P(x)=x^5-4x^3+2x^2-3$, $D(x)=x-1$.

6.12. Gorner sxemasidan foydalaniib, $f(x)$ ko'phadning $x=a$ nuqtadagi qiymatini toping:

- a) $f(x)=x^3-x^2+2$, $a=1$;
- b) $f(x)=x^4-3x^3-x+10$, $a=2$;
- d) $f(x)=x^5-x^4+3x^2-x+1$, $a=-1$;
- e) $f(x)=x^6-7x^2+3x^2-3$, $a=3$;
- f) $f(x)=x^6-5x^3-4x^2+8$, $a=4$;
- g) $f(x)=x^8+7x^7+x^6+3x^5+3x^4+2x^3+x^2-x+1$, $a=5$.

6.13. Gorner sxemasidan foydalaniib, $a^3+b^3+c^3-3abc$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

6.14. Agar $a \geq 0$, $b \geq 0$, $c \geq 0$ bo'lsa, $\frac{a^3+b^3+c^3}{3} \geq abc$ bo'ladi. Shuni 6.13-masala natijasidan foydalaniib isbotlang.

7-§. ALGEBRANING ASOSIY TEOREMASI

Algebraning asosiy teoremasi (Gauss teoremasi).

n-darajali (bu yerda $n \geq 1$) har qanday ko'phad aqallibitta kompleks ildizga ega.

T e o r e m a. *Agar $\alpha+\beta i$ ($\beta \neq 0$) kompleks son $P(z)$ ko'phadning ildizi bo'lsa, $\alpha-\beta i$ soni ham $P(z)$ ko'phadning ildizi bo'ladi.*

N a t i j a: *n-darajali $P_n(x)$ ko'phad $x-\alpha$ ko'rinishidagi ikkihadlar va x^2+px+q ko'rinishidagi manfiy diskriminantli kvadrat uchhadlar darajalarining ko'paytmasidan iborat:*

$$P_n(x) = a_0(x-\alpha)^k \cdot \dots \cdot (x^2+px+q)^m \cdot \dots$$

bu yerda $k \in \{0, 1, 2, \dots\}$ $m \in \{0, 1, 2, \dots\}$.

1 - m i s o l. $x^2+4x+15=0$ tenglamaning barcha kompleks ildizlarini toping.

Y e c h i s h. Algebraning asosiy teoremasidan bu tenglama ko'pi bilan ikkita kompleks ildizga egaligi kelib chiqadi. Bu ildizlar kvadrat tenglamani yechishning odatdag'i usul yordamida topiladi:

$$x^2+4x+15=0; D=4^2-4 \cdot 15=-44; x_{1,2} = \frac{-4+2\sqrt{-11}}{2} = -2 \pm i\sqrt{11}.$$

2 - m i s o l. $x^2+4x+15$ uchhadni ko'paytuvchilarga ajrating.

Y e c h i s h. Kvadrat uchhadning ildizlarini topamiz:
 $x_{1,2} = -2 \pm i\sqrt{11}$. Shuning uchun $x^2+4x+15=(x+2-i\sqrt{11}) \cdot (x+2+i\sqrt{11})$.

3 - m i s o l. $x^4+4x^2+15=0$ tenglamaning barcha kompleks ildizlarini toping.

Y e c h i s h. $x^2=t$ deb, $t^2+4t+15=0$ kvadrat tenglamani hisil qilamiz. Uning ildizlari: $t_1=-2+i\sqrt{11}$, $t_2=-2-i\sqrt{11}$. $x^2=-2+i\sqrt{11}$, $x^2=-2-i\sqrt{11}$ tenglamalarga ega bo'ldik. $\sqrt{2+i\sqrt{11}}$, $\sqrt{2-i\sqrt{11}}$ ifodalarning qiyamatlarini hisoblasak, berilgan tenglamaning 4 ta kompleks ildizlariga ega bo'lamiz (bu ildizlarni o'zingiz aniqlang).

4 - m i s o l. Ildizlaridan biri $1+3i$ bo'lgan haqiqiy koeffitsiyentli kvadrat tenglama tuzing.

Y e c h i s h. $1+3i$ son izlanayotgan kvadrat tenglamaning ildizi bo'lgani uchun $1-3i$ son uning ildizi bo'ladi. Demak, izlangan tenglama $a(x-(1+3i))(x-(1-3i))=0$ ko'rinishda bo'lib, bu yerda $a \in R$, $a \neq 0$. Qavslarni ochib,

o'xshash qo'shiluvchilar ixchamlansa, $ax^2 - 2ax + 10a = 0$ kvadrat tenglama hosil bo'ladi. Bu esa izlangan tenglamadir.

Javob: $ax^2 - 2ax + 10a = 0$, ($a \in \mathbb{R}$, $a \neq 0$).

7.1. Tenglamaning barcha kompleks yechimlarini toping.

- a) $x^2 - 2x + 2 = 0$; f) $x^2 + 2x + 17 = 0$; j) $9x^2 - 12x + 5 = 0$;
- b) $x^2 - 4x + 5 = 0$; g) $x^2 - 8x + 41 = 0$; k) $16z^2 - 32z + 17 = 0$;
- d) $x^2 + 6x + 13 = 0$; h) $9x^2 + 6x + 10 = 0$; l) $z^2 + 4z + 7 = 0$;
- e) $x^2 + 4x + 13 = 0$; i) $4x^2 + 4x + 5 = 0$; m) $z^2 - 6z + 11 = 0$.

7.2. Kvadrat uchhadni chiziqli ko'paytuvchilarga ajrating:

- a) $x^2 + 2x + 5$; d) $4z^2 + 8z + 5$;
- b) $x^2 - 3x + 10$; e) $25z^2 + 50z + 26$.

7.3. Tenglamani kompleks sonlar to'plamida yeching:

- a) $z^4 + 5z^2 - 36 = 0$; f) $x^4 + 3x^2 - 18 = 0$;
- b) $x^4 - 8x^2 - 9 = 0$; g) $x^4 + 4x^2 - 32 = 0$;
- d) $y^4 - y^2 - 6 = 0$; h) $z^4 + z^2 + 1 = 0$;
- e) $t^4 + 2t^2 - 15 = 0$; i) $z^6 - 2z^3 + 4 = 0$.

7.4. Ildizlaridan biri $2-3i$ bo'lgan haqiqiy koeffitsiyentli kvadrat tenglama tuzing.

7.5. Ildizlari $2-3i$, $2-i$ bo'lgan haqiqiy koeffitsiyentli to'rtinch darajali tenglama tuzing.

7.6. Ildizlari 2 , $2-3i$, $2-i$ bo'lgan haqiqiy koeffitsiyentli beshinch darajali tenglama tuzing.

7.7. $x=1$ soni $x^{2n} - nx^{n+1} + nx^{n-1} - 1$ ko'phadning necha karrali ildizi ekanini aniqlang.

7.8. Quyidagi ko'phadlarni chiziqli va kvadrat ko'paytuvchilar ko'paytmasi shaklida tasvirlang.

- a) $x^6 + 27$; d) $x^6 + 64$;
- b) $x^4 + 16x^2$; e) $x^4 + 7x^2$.

8-§. YUQORI DARAJALI TENGLAMALAR

Teorema: $\frac{p}{q}$ qisqarmas kasr ($p \in \mathbb{Z}$, $q \in \mathbb{N}$) bo'lsin. $\frac{p}{q}$

son $P_n(x) = a_0 x^n + a_1 x^{n-1} + \dots + a_{n-1} x + a_n$ ko'phadning ildizi bo'lishi uchun p son ozod had a_n ning, q soni esa bosh koeffitsiyent a_0 ning bo'luvchisi bo'lishi zarur.

Natija: $p \in \mathbb{Z}$ soni $P_n(x)$ ko'phadning ildizi bo'lishi uchun p soni ozod had a_n ning bo'luvchisi bo'lishi zarur.

1 - miso 1. $2x^3 + x^2 - 4x - 2 = 0$ tenglamaning ratsional ildizlarini toping.

Yechish. Ozod hadning barcha butun bo'luvchilari: $-2; -1; 1; 2$.

Bosh koeffitsiyentning barcha natural bo'luvchilari: $1; 2$. Tenglamaning ratsional ildizlarini quyidagi sonlar orasidan izlaymiz:

$$-2; -1; -\frac{1}{2}; \frac{1}{2}; 1; 2.$$

Bu sonlarni berilgan tenglamaga bevosita qo'yib ko'rish bilan, ularning ildiz bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlaymiz.

Tekshirish ko'rsatadiki, $-\frac{1}{2}$ soni berilgan tenglamaning ildizi bo'ladi, qolgan sonlar esa ildiz bo'lmaydi.

Shunday qilib, berilgan tenglama faqat bitta ratsional ildizga ega: $x = -\frac{1}{2}$.

Javob: $x = -\frac{1}{2}$.

2 - misol. Tenglamaning butun ildizlarini toping:
 $2x^4 - x^3 + 2x^2 + 3x - 2 = 0$.

Yechish. Ozod hadning barcha butun bo'luvchilari: $-2; -1; 1; 2$. Tenglamaning barcha butun ildizlarini quyidagi sonlar orasidan izlaymiz: $-2; -1; 1; 2$.

Bu sonlarning har birini tenglamaga qo'yib ko'rib, ular orasidan faqat -1 songina tenglamaning yechimi ekanini aniqlaymiz.

Demak, berilgan tenglama faqat bitta butun yechimiga ega: $x = -1$.

Javob: $x = -1$.

3 - misol. $x^3 + 3x^2 - 1 = 0$ tenglamaning butun ildizlarini toping.

Yechish. Butun ildizlarni $-1; 1$ sonlar orasidan izlaymiz. Bu sonlarning ikkalasi ham tenglamaning ildizi emasligini ko'rish qiyin emas.

Javob: tenglama butun ildizga ega emas.

4 - misol. $2x^4 - x^3 + 2x^2 + 3x - 2 = 0$ ($x \in R$) tenglamani yeching.

Yechish. Oldingi misollardan farqli o'laroq, bu yerda tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarini topish talab qilinayapti.

Dastlab ratsional ildizlarini izlaymiz. Ratsional ildizlar esa $-2; -1; -\frac{1}{2}; \frac{1}{2}; 1; 2$ sonlar orasida bo'ladi (agar ular

mavjud bo'lsa). Ratsional ildizlar quyidagi sonlar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin: -1 va $\frac{1}{2}$.

Shuning uchun tenglamaning chap tomonidagi ko'phad $(x+1)(x-\frac{1}{2}) = x^2 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{2}$ ga qoldiqsiz bo'linadi. Bo'lishni bajarib,

$$2x^4 - x^3 + 2x^2 + 3x - 2 = \left(x^2 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{2}\right) \cdot (2x^2 - 2x + 4)$$

ni hosil qilamiz.

Tenglamani quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\left(x^2 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{2}\right) \cdot (2x^2 - 2x + 4) = 0.$$

$2x^2 - 2x + 4 = 0$ tenglama yangi haqiqiy ildizlarni bermaydi.

Javob: $x_1 = -1$; $x_2 = \frac{1}{2}$.

8.1. Tenglamaning ratsional ildizlarini toping:

- | | |
|----------------------------------|--|
| a) $3x^3 - 4x^2 + 5x - 18 = 0$; | f) $4x^4 + 8x^3 - 3x^2 - 7x + 3 = 0$; |
| b) $x^3 - 4x^2 - 27x + 90 = 0$; | g) $x^4 + x^3 + x^2 + 3x + 2 = 0$; |
| d) $x^4 - x^3 + x + 2 = 0$; | h) $x^4 - 4x^3 - 13x^2 + 28x + 12 = 0$; |
| e) $2x^3 - 5x^2 + 8x - 3 = 0$; | i) $3x^4 + 4x^2 + 5x - 12 = 0$. |

8.2 . Tenglamaning butun ildizlarini toping:

- | | |
|--|---------------------------------|
| a) $x^4 + 2x^3 + 4x^2 + 3x - 10 = 0$; | b) $x^3 + 7x^2 + 14x + 8 = 0$; |
| d) $x^4 - x^3 + 2x^2 - x + 1 = 0$; | e) $x^4 + x^2 + x + 2 = 0$. |

8.3. Tenglamani yeching ($x \in R$):

- | | |
|--|---|
| a) $3x^3 - 5x^2 + 3x + 5 = 0$; | b) $4x^5 + 8x^4 + 5x^3 + 10x^2 - 3x - 6 = 0$; |
| d) $3x^6 - 6x^4 + 4x^3 - 8x^2 - 3x + 6 = 0$; | e) $2x^5 + 4x^4 - 5x^3 - 10x^2 - 7x - 14 = 0$; |
| f) $3x^5 - 6x^4 - 8x^3 + 16x^2 - 16x + 32 = 0$; | g) $2x^5 + 6x^4 - 7x^3 - 21x^2 - 4x - 12 = 0$. |

8.4. Tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarini toping:

- | | |
|--|--|
| a) $2x^4 + 3x^3 - 8x^2 - 9x + 6 = 0$; | b) $2x^4 - 5x^3 - x^2 + 5x + 2 = 0$; |
| d) $5x^4 - 3x^3 - 4x^2 - 3x + 5 = 0$; | e) $4x^4 - 3x^3 - 8x^2 + 3x + 4 = 0$; |
| f) $3x^4 - 4x^3 - 7x^2 + 4x + 4 = 0$; | g) $2x^4 - 7x^3 - 5x^2 + 7x + 3 = 0$. |

8.5. Tenglamani yeching ($x \in R$):

- | | |
|---|---------------------------------------|
| a) $8x^4 + 6x^3 - 13x^2 - x + 3 = 0$; | b) $x^3 + 6x + 4x^2 + 3 = 0$; |
| d) $2x^4 - x^3 - 9x^2 + 13x - 5 = 0$; | e) $(x-1)^3 + (2x+3)^3 = 27x^3 + 8$; |
| f) $x^3 - (2a+1)x^2 + (a^2+a)x - (a^2-a) = 0$; | |
| g) $x^4 - 4x^3 - 19x^2 + 106x - 120 = 0$. | |

8.6. $(x+a)(x+b)(x+c)(x+d)=m$ (bu yerda $a+b=c+d$) ko'rinishdagи tenglamani yeching:

- a) $(x+1)(x-2)(x+3)(x-4)=144$; b) $(x-1)(x+2)(x-3)(x-6)=6$;
- d) $(x-3)(x+2)(x-6)(x-1)=-56$; e) $(x+2)(x-3)(x-4)(x+3)=9$;
- f) $(x+3)(x-2)(x-6)(x+7)=-180$;
- g) $(x+6)(x+2)(x-7)(x-3)=-180$.

8.7. Qaytma tenglamani yeching:

- | | |
|-----------------------------|------------------------------|
| a) $x^4-3x^3+4x^2-3x+1=0$; | b) $x^4-3x^3+x^2+3x+1=0$; |
| d) $x^4-4x^3+x^2-4x+1=0$; | e) $2x^4-4x^3+2x^2-4x+2=0$; |
| f) $x^4+2x^3-x^2+2x+1=0$; | g) $x^4+2x^3+x^2-2x+1=0$. |

8.8. Qaytma tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarini toping:

- | | |
|-------------------------------|------------------------------|
| a) $x^4+5x^3+2x^2+5x+1=0$; | b) $4x^4+2x^3+3x^2+x+1=0$; |
| d) $2x^4+3x^3-13x^2-6x+8=0$; | e) $3x^4-2x^3+x^2-6x+27=0$. |

8.9. Tenglamani yeching:

a) $8x^3+36x^2+54x=98$.

Y e c h i s h. $8x^3+36x^2+54x=(2x+3)^3-27$ bo'lgani uchun, berilgan tenglama $(2x+3)^3-27=98$ tengligma teng kuchli. Bundan: $(2x+3)^3=125$; $2x+5=5$. Bundan $x=1$ ekanini topamiz.

J a v o b: 1.

b) $8x^3-36x^2+54x=28$;

d) $16x^4+32x^3+12x^2+8x-80=0$;

e) $x^4-8x^3+24x^2-8x=65$;

f) $(x^2+27)^2-5(x^2+27)(x^2+3)+6(x^2+3)^2=0$.

g) $(x^2-1)^2+5(x^4-1)-6(x^2+1)^2=0$;

h) $(x^2-3)^2-7(x^4-9)+6(x^2+3)^2=0$.

i) $(x-2)^2+(x-2)(x+1)+(x+1)^2=0$.

Namuna sifatida f) tenglamani yechib ko'rsatamiz.

E c h i s h. Bu tenglamaning hadlarini $(x^2+3)^2$ ga bo'lsak, u ushbu ko'rinishni oladi: $\frac{(x^2+27)^2}{(x^2+3)^2}-5 \cdot \frac{x^2+27}{x^2+3}+6=0$, $y=\frac{x^2+27}{x^2+3}$ deb belgilasak, $y^2-5y+6=0$ tenglama hosil bo'ladi.

Bundan $y_1=2$, $y_2=3$ larga egamiz.

$\frac{x^2+27}{x^2+3}=2$, $\frac{x^2+27}{x^2+3}=3$ tenglamalar mos ravishda $\pm\sqrt{21}$ va ± 3 ildizlarga ega.

8.10. $f[f(x)]=x$ ko'rinishidagi tenglamani yeching:

a) $(x^2-4x+6)^2-4(x^2-4x+6)+6=x$ (*) .

Y e c h i s h. $x^2-4x+6=x$ tenglamani yechamiz:

$x^2-5x+6=0$; $x_1=2$, $x_2=3$;

$(x^2 - 4x + 6)^2 - 4(x^2 - 4x + 6) - x = 0$ ko'phad $(x-2)(x-3)$ ga qoldiqsiz bo'linadi. Bo'lishni bajarib, $x^2 - 3x + 3$ bo'linmani topamiz. (*) ni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin: $(x^2 - 3x + 3)(x-2)(x-3) = 0$

Bu tenglama $x=2, x=3$ lardan boshqa haqiqiy ildizlarga ega emas. (*) tenglamaning hamma ildizlari: 2; 3.

- b) $(x^2 + 2x - 5)^2 + 2(x^2 + 2x - 5) - 5 = x;$
- v) $(x^2 - x - 3)^2 - (x^2 - x - 3) - 3 = x;$
- d) $(x^2 - 8x + 18)^2 - 8(x^2 - 8x + 18) + 18 = x;$
- e) $(x^2 - 9x + 16)^2 - 9(x^2 - 9x + 16) + 16 = x;$
- f) $(x^2 - 3x + 3)^2 - 3(x^2 - 3x + 3) + 3 = x.$

9-§. DETERMINANTLAR

1 - m i s o l. Tenglamani yeching: $\begin{vmatrix} x & 3 \\ 1 & x^2 \end{vmatrix} = 5$.

Y e c h i s h. $\begin{vmatrix} x & 3 \\ 1 & x^2 \end{vmatrix} = x \cdot x^2 - 1 \cdot 3 = x^3 - 3$ bo'lgani uchun tenglama $x^3 - 3 = 5$ yoki $x^3 = 8$ ko'rinishini oladi.

J a v o b: $x=2$.

2 - m i s o l. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix}$ ni hisoblang.

Y e c h i s h. I usul:

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix} = 1 \cdot 5 \cdot 9 + 2 \cdot 6 \cdot 7 + 4 \cdot 8 \cdot 3 - 7 \cdot 5 \cdot 3 - 4 \cdot 2 \cdot 9 - 8 \cdot 6 \cdot 1 = \\ = 45 + 84 + 96 - 105 - 72 - 48 = 0.$$

II usul:

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix} = (-1)^{1+1} \cdot 1 \cdot \begin{vmatrix} 5 & 6 \\ 8 & 9 \end{vmatrix} + (-1)^{1+2} \cdot 2 \cdot \begin{vmatrix} 4 & 6 \\ 7 & 9 \end{vmatrix} + (-1)^{1+3} \cdot 3 \cdot \begin{vmatrix} 4 & 5 \\ 7 & 8 \end{vmatrix} = \\ = 1 \cdot (45 - 48) - 2(36 - 42) + 3(32 - 35) = -3 + 12 - 9 = 0.$$

9.1. Determinantlarni hisoblang:

- a) $\begin{vmatrix} -3 & 0 \\ 7 & 5 \end{vmatrix};$ d) $\begin{vmatrix} -5 & -7 \\ 13 & -6 \end{vmatrix};$ f) $\begin{vmatrix} 0 & 0 \\ 1 & -6 \end{vmatrix};$ h) $\begin{vmatrix} 1-a & -a \\ a & 1+a \end{vmatrix};$
- b) $\begin{vmatrix} 2 & -1 \\ 3 & 0 \end{vmatrix};$ e) $\begin{vmatrix} 1 & -\frac{3}{2} \\ -2 & 3 \end{vmatrix};$ g) $\begin{vmatrix} 1 & 0 \\ -3 & 0 \end{vmatrix};$ i) $\begin{vmatrix} x & 1 \\ x^2 & x^3 \end{vmatrix}.$

9.2. a ning qanday qiymatlarida determinantning satrlari proporsional bo‘ladi:

a) $\begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 2 & a \end{vmatrix}$; b) $\begin{vmatrix} a & -4 \\ 1 & 2 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} 7 & 5 \\ a & 3a \end{vmatrix}$; e) $\begin{vmatrix} 0 & 0 \\ 6 & a \end{vmatrix}$?

9.3. Tenglamani yeching:

a) $\begin{vmatrix} a & 2 \\ 2 & a \end{vmatrix} = 0$; b) $\begin{vmatrix} a-1 & 3 \\ a^2 & 3a \end{vmatrix} = 0$; d) $\begin{vmatrix} a & a-1 \\ a+2 & a \end{vmatrix} = 0$.

9.4. Determinantlarni hisoblang:

a) $\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & -2 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} a & 1 & a \\ -1 & a & 1 \\ a & -1 & a \end{vmatrix}$; f) $\begin{vmatrix} a & 1 & a \\ 0 & -a & -1 \\ a & 1 & -a \end{vmatrix}$;

b) $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 5 \\ 3 & -4 & 7 \\ -3 & 12 & -15 \end{vmatrix}$; e) $\begin{vmatrix} 1 & b & 1 \\ 0 & b & 0 \\ b & 0 & b \end{vmatrix}$; g) $\begin{vmatrix} a & -a & a \\ a & a & -a \\ a & -a & -a \end{vmatrix}$.

9.5. Tenglamani yeching:

a) $\begin{vmatrix} x & 1 & 0 \\ 2 & 2 & 3 \\ 1 & 2 & x \end{vmatrix} = 0$; d) $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 1 & 2 & x \\ 1 & 2 & 4 \end{vmatrix} = 0$;

b) $\begin{vmatrix} x^2 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix} = 0$; e) $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 5 \\ 2 & 6 & 10 \\ x^4 & x & x \end{vmatrix} = 0$.

9.6. Hisoblang:

a) $2 \cdot \begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 2 & 5 \end{vmatrix} - 2 \cdot \begin{vmatrix} x & 2 \\ 1 & -1 \end{vmatrix}$, bunda $x=3,1(73)$;

b) $2,(7) \cdot \begin{vmatrix} x & 0 \\ 2 & 0 \end{vmatrix} + 3,(13)$, bunda $x=2,(71)$.

9.7. Determinantlarni hisoblang:

a) $\begin{vmatrix} 5 & 20 & 15 \\ 2 & 4 & 8 \\ 1 & 4 & 7 \end{vmatrix}$; b) $\begin{vmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 6 & 2 & 0 \\ 5 & 4 & 3 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} 7 & 3 & 2 \\ 3 & 1 & 2 \\ 10 & 12 & 8 \end{vmatrix}$;

e) $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 2 \\ 2 & 1 & 2 \\ 4 & 12 & 8 \end{vmatrix}$; f) $\begin{vmatrix} 7 & 1 & 2 \\ 3 & 2 & 2 \\ 10 & 4 & 8 \end{vmatrix}$; g) $\begin{vmatrix} 7 & 3 & 1 \\ 3 & 1 & 2 \\ 10 & 12 & 4 \end{vmatrix}$.

9.8. Tenglamani yeching:

a) $2 \cdot \begin{vmatrix} x & 1 \\ 2 & 3 \end{vmatrix} + 3 \cdot \begin{vmatrix} x & 1 & 0 \\ x^2 & x & 0 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix} = 0$; b) $2 \cdot \begin{vmatrix} x^2 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 0 \\ 3 & 4 & 1 \end{vmatrix} - 3 \cdot \begin{vmatrix} x & 3 \\ 2 & 4 \end{vmatrix} = 16$;

$$d) \frac{\begin{vmatrix} x^2 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 0 \\ 3 & 4 & 1 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} x & 3 \\ 2 & 4 \end{vmatrix}} - \frac{\begin{vmatrix} 4 & 2 \\ 3 & 6 \end{vmatrix}}{4x - 6} = -\frac{67}{4}; \quad e) \frac{\begin{vmatrix} 3 \\ 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 6 \\ 1 & 2 & 1 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 6 \\ 1 & 2 & 1 \end{vmatrix}} - x = 1.$$

10-§. CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI

$\begin{cases} a_1x + b_1y = c_1 \\ a_2x + b_2y = c_2 \end{cases}$ sistema ikki o'zgaruvchili chiziqli tenglamalar sistemasi deyila. Bu yerda $a_1, b_1, c_1, a_2, b_2, c_2$ lar haqiqiy sonlar bo'lib, ularning hammasi bir vaqtida nolga teng bo'lishi ham mumkin.

Yagona yechimga ega bo'lgan sistema *aniq sistema* deb, cheksiz ko'p yechimga ega bo'lgan sistema esa *aniqmas sistema* deb ataladi.


Echimga ega bo'lмаган система *birgalikda bo'lмаган система* деганда деялди.

$\Delta = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}$ ni sistemaning *asosiy determinanti* deb,

quyidagi determinantlarni esa sistemaning *yordamchi determinantlari* deb ataymiz:

$$\Delta_x = \begin{vmatrix} c_1 & b_1 \\ c_2 & b_2 \end{vmatrix}; \quad \Delta_y = \begin{vmatrix} a_1 & c_1 \\ a_2 & c_2 \end{vmatrix}.$$

Teorema.



$$x = \frac{\Delta_x}{\Delta} \quad y = \frac{\Delta_y}{\Delta}$$

M i s o l. $\begin{cases} 2x + ay = a + 2, \\ (a+1)x + 2ay = 2a + 4 \end{cases}$ sistema a ning qanday qiymatlarida cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi?

Y e c h i s h. Teoremdan ko'rindaniki, sistema quyidagi hollardagina aniqmas sistema bo'la oladi:

1) $\Delta = \Delta_x = \Delta_y = 0$ va o'zgaruvchilar oldidagi koeffisiyentlardan kamida bittasi noldan farqli;

2) sistemadagi 6 ta koeffitsiyentning hammasi nolga teng.

Bizning sistema uchun 2-hol o'rini emas. Shu sababli, 1-holni qarash yetarlidir.

Berilgan sistema aniqmas sistema bo'lishi uchun a parametr quyidagi sis-temaning yechimi bo'lishi kerak:

$$\left\{ \begin{array}{l} \Delta = \begin{vmatrix} 2 & a \\ a+1 & 2a \end{vmatrix} = 0, \\ \Delta_x = \begin{vmatrix} a+2 & a \\ 2a+4 & 2a \end{vmatrix} = 0, \\ \Delta_y = \begin{vmatrix} 2 & a+2 \\ a+1 & 2a+4 \end{vmatrix} = 0. \end{array} \right.$$

Bu sistema yagona yechimga ega: $a=3$.

J a v o b: $a=3$.

10.1. Sistemaning o'rniga qo'yish usuli bilan yeching:

$$\begin{array}{ll} \text{a)} \begin{cases} x - y = 5, \\ 2x + 3y = 5; \end{cases} & \text{b)} \begin{cases} 2x - y = 1, \\ 3x + 4y = 5; \end{cases} \quad \text{d)} \begin{cases} x + y = 5, \\ 2x + 2y = 10; \end{cases} \\ \text{e)} \begin{cases} \frac{1}{2}x - y = 5, \\ x - 9y = 31; \end{cases} & \text{f)} \begin{cases} \frac{1}{2}x + \frac{1}{3}y = 6, \\ \frac{x}{5} + \frac{y}{4} = 3\frac{9}{20}; \end{cases} \quad \text{g)} \begin{cases} \frac{3}{4}x - \frac{5}{7}y = \frac{23}{168}, \\ 21x - 20y = 21; \end{cases} \\ \text{h)} \begin{cases} 0,3x - y = \frac{4}{7}, \\ 30x - 10y = \frac{40}{7}; \end{cases} & \text{i)} \begin{cases} 0,3 - 4y = \frac{1}{3}, \\ 0,7x - 7y = 43. \end{cases} \end{array}$$

10.2. Sistemaning algebraik qo'shish usulida yeching:

$$\begin{array}{ll} \text{a)} \begin{cases} x - y = -1, \\ 4x + y = 6; \end{cases} & \text{b)} \begin{cases} 2x + y = 2, \\ -2x - y = 3; \end{cases} \quad \text{c)} \begin{cases} 2x + 3y = 7, \\ -4x - 6y = -14; \end{cases} \\ \text{e)} \begin{cases} 2x + 3y = 2, \\ \frac{1}{2}x - 3y = -\frac{11}{8}; \end{cases} & \text{f)} \begin{cases} 2x + 3y = \frac{281}{143}, \\ 3x + 4y = \frac{405}{143}; \end{cases} \quad \text{g)} \begin{cases} 3,1x + \frac{1}{13}y = 1, \\ 3,1x + \frac{1}{11}y = 3. \end{cases} \end{array}$$

10.3. Sistemaning asosiy determinantini hisoblang:

$$\begin{array}{ll} \text{a)} \begin{cases} 3x + 4y = 7, \\ 2x - 5y = 1; \end{cases} & \text{b)} \begin{cases} 1,2x - 4y = 3, \\ 3x - 5y = 7; \end{cases} \\ \text{d)} \begin{cases} ax - y = 1, \\ 5x + 2y = 2; \end{cases} & \text{e)} \begin{cases} ax - by = 1, \\ 13x - 4y = 2. \end{cases} \end{array}$$

10.4. Sistemaning yordamchi determinantlarini hisoblang:

$$\begin{array}{ll} \text{a)} \begin{cases} 2x - 3y = 1, \\ x - y - 7 = 0; \end{cases} & \text{b)} \begin{cases} 3x - 1,7y = 2, \\ 4x - 4,3y = 1; \end{cases} \\ \text{d)} \begin{cases} 3x - 5y = 2, \\ 4x - 4,3y = 5; \end{cases} & \text{e)} \begin{cases} 4x - 3y = 5, \\ 6x - 7y = 0. \end{cases} \end{array}$$

10.5. Sistemanı Kramer formulalaridan foydalanib yeching:

- a) $\begin{cases} 2x + 3y = -4, \\ 3x + 8y = 1; \end{cases}$ b) $\begin{cases} x - 2y = 0, \\ 4x - 8y = 5; \end{cases}$ j) $\begin{cases} x - y = 1, \\ 3x - 3y = -3; \end{cases}$
 b) $\begin{cases} 2x + 11y = 15, \\ 10x - 11y = 9; \end{cases}$ g) $\begin{cases} 2x - y = 3, \\ x - 0,5y = 1; \end{cases}$ k) $\begin{cases} 3x - 5y = 0, \\ -15x + 25y = 0; \end{cases}$
 d) $\begin{cases} 2x - 3y = -3, \\ x + 3y = 21; \end{cases}$ h) $\begin{cases} -x + 3y = -2, \\ 2x - 6y = -1; \end{cases}$ l) $\begin{cases} 2x - 3y = -1, \\ 4x - 6y = 1; \end{cases}$
 e) $\begin{cases} 2x - 3y = 16, \\ x + 2y = 1; \end{cases}$ i) $\begin{cases} \frac{3}{4}x - \frac{5}{7}x = \frac{23}{168}, \\ 2x + 6y = \frac{31}{165}; \end{cases}$ m) $\begin{cases} 7x - 2y = 16, \\ 3,5x - y = 8. \end{cases}$

10.6. $\begin{cases} 3x - 5y = -7, \\ 4x + 7y = 18 \end{cases}$ sistema berilgan:

- a) Sistemaning har bir tenglamasi nechta yechimga ega?
 b) Sistema nechta yechimga ega?

10.7. Sistemanı yeching:

- a) $\begin{cases} 2x + ay = -6, \\ ax + 8y = 12; \end{cases}$ b) $\begin{cases} ax - (a-1)y = 0,5, \\ (a-1)x - ay = a; \end{cases}$
 d) $\begin{cases} 3x - ay = 6 - a, \\ -ax + 3y = 3 - 2a. \end{cases}$

10.8. $\begin{cases} a^2x - ay = a - 1, \\ bx + (3-2b)y = 3+a \end{cases}$ sistema (1;1) dan iborat

yagona yechimga ega. a va b larni toping.

10.9. a va b larning quyidagi sistema cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi gan barcha qiymatlarini toping:

$$\begin{cases} a^2x - by = a^2 - b, \\ bx - b^2y = 2 + 4b. \end{cases}$$

10.10. a ning qanday qiymatlarida quyidagi sistema yechimga ega bo'lmaydi:

$$\begin{cases} ax - 4y = a + 1, \\ 2x + (a+6)y = a + 3 \end{cases}$$

10.11. a ning qanday qiymatlarida

$$\begin{cases} 2x - ay = a + 2, \\ (a+1)y + 2ay = 2a + 4 \end{cases}$$
 sistema cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi?

10.12. Sistemanı Gauss usulida yeching:

- a) $\begin{cases} x + y + z = 1, \\ 2x + 3y - 2z = 7, \\ 3x + 2y + 5z = 0; \end{cases}$ b) $\begin{cases} x + y - z = -1, \\ 3x - 2y + 4z = 9, \\ 2x + 3y + 2z = 1; \end{cases}$

$$d) \begin{cases} x - y + z = -1, \\ 2x + 3y + 4z = 5, \\ 3x - 2y - 2z = -7; \end{cases}$$

$$f) \begin{cases} -x + y + z = -3, \\ 2x + 2y - 3z = 3, \\ 3x + 4y + 5z = -6; \end{cases}$$

$$e) \begin{cases} x - y - z = -1, \\ 4x + 5y - 3z = 6, \\ 2x + 3y - 2z = 3; \end{cases}$$

$$g) \begin{cases} -x - y + z = 3, \\ 5x + 2y + 3z = -4, \\ 3x + 4y - 2z = -9. \end{cases}$$

10.13. Sistemani Kramer formulalari yordamida yeching:

$$a) \begin{cases} -x_1 + 2x_2 + 3x_3 = 0, \\ x_1 - 4x_2 - 13x_3 = 0, \\ -3x_1 + 5x_2 + 4x_3 = 0; \end{cases}$$

$$d) \begin{cases} x + 2y + 3z = 1, \\ 2x + y - z = 3, \\ 3x + 3y + 2z = 10; \end{cases}$$

$$f) \begin{cases} 2x - 3y + z - 2 = 0, \\ x + 5y - 4z + 5 = 0, \\ 4x + y - 3z = -4; \end{cases}$$

$$b) \begin{cases} 2x - 4y + z = 1, \\ x - 2y + 4z = 3, \\ 3x - y + 5z = 2; \end{cases}$$

$$e) \begin{cases} x + 2y + 3z = 4, \\ 2x + 4y + 6z = 3, \\ 3x + y - z = 1; \end{cases}$$

$$g) \begin{cases} 7x + 3y + 2z = 1, \\ 3x + y + 2z = 2, \\ 10x + 12y + 8z = 4. \end{cases}$$

10.14. Sistemani yeching:

$$a) \begin{cases} 5x + 2y + 3z = -7, \\ 5x + 2y + 3z = 4; \end{cases}$$

$$d) \begin{cases} 4x + 5z = 6, \\ y - 6z = -2; \end{cases}$$

$$b) \begin{cases} 5x - 3y = 7, \\ -2x + 9y = 4, \\ 2x + 4y = -2; \end{cases}$$

$$e) \begin{cases} x + 2y = 3, \\ 3y - 2z = -1. \end{cases}$$

11-§. CHIZIQOLI BO'LMAGAN TENGLAMALAR SISTEMASI

1 - m i s o l. $\begin{cases} x - y = 2, \\ x^2 + y^2 = 10 \end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h. Sistemaning tarkibida o'zgaruvchilarning birini ikkinchisi orqali chiziqli ifodalab olish imkonini beradigan tenglama mavjud. Bunday holda sistemani o'rniqa qo'yish usuli bilan yechish mumkin. $x-y=2$ dan $x=y+2$ ni topib, ikkinchi tenglamada $x=y+2$ o'rniqa qo'yishni bajaramiz: $(y+2)^2+y^2=10$.

Bu tenglama $y_1=-3$, $y_2=1$ ildizlarga ega. U holda $x_1=y_1+2=-3+2=-1$; $x_2=y_2+2=1+2=3$.

Javob: $(-1;-3)$ va $(3;1)$.

2 - m i s o l. $\begin{cases} x - y = 1, \\ x^2 - y^2 = 3 \end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h. Bu sistemani ham o'rniqa qo'yish usuli bilan yechish qulay. Ammo o'rniqa qo'yishni boshqacha yo'l bilan amalga oshiramiz: $x^2 - y^2 = (x-y)(x+y)$ bo'lgani uchun siste-

mani $\begin{cases} x - y = 1, \\ x + y = 3 \end{cases}$, ko'rinishda yozib olamiz. Bu esa chiziqli tenglamalar sistemasidir. Uni yechib, (2;1) yechimni topamiz.

J a v o b: (2;1).

3 - m i s o l. $\begin{cases} x + y = 15, \\ xy = 56 \end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h. Bu sistemaga o'rniga qo'yish usulini qo'llasak, kvadrat tenglamani yechishdan iborat oraliq masalaga kelib qolamiz. Bu kvadrat tenglamani berilgan sistemaga o'rniga qo'yish usulini qo'llamay hosil qilish mumkin. Buning uchun Viet teoremasiga teskari teoremadan foydalanish zarur.

x, y lar uchun $x+y=15$, $xy=56$ bo'lsa, ular $t^2-15t+56=0$ kvadrat tenglamaning ildizlari bo'ladi. $t^2-15t+56=0$ tenglamani yechib, $t_1=7$, $t_2=8$ larni topamiz. Demak, $x_1=7$, $y_1=8$ va $x_2=8$, $y_2=7$.

Javob: (7;8) va (8;7).

3 - misolda qarab chiqilgan usul «yordamchi kvadrat tenglama tuzish usuli» deb atalishi mumkin.

4 - m i s o l. $\begin{cases} x - y = 1, \\ xy = 12 \end{cases}$ sistemani yeching.

E c h i s h. $z = -y$ deb olib, sistemani quyidagicha yozib olamiz:

$$\begin{cases} x + z = 1, \\ xz = -12 \end{cases}$$

Yordamchi kvadrat tenglamani tuzamiz:

$$t^2-t-12=0.$$

Bundan $t_1=-3$, $t_2=4$ larni topamiz. U holda $x_1=-3$, $z_1=4$ va $z_2=4$, $z_3=-3$ bo'ladi. $z = -y$ ekanini e'tiborga olib, berilgan sistemani yechimlarini aniqlaymiz: $x_1=-3$; $y_1=-4$; $x_2=4$; $y_2=3$.

Javob: (-3; -4); (4;3).

5 - m i s o l. $\begin{cases} x^2 + y^2 = 10, \\ xy = 3 \end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h. I usul. Ikkiga ko'paytirilgan ikkinchi tenglamani birinchi tenglamaga hadma-had qo'shib, $(x+y)^2=16$ tenglamani hosil qilamiz. Bundan $x+y=-4$ yoki $x+y=4$ ekanligi kelib chiqadi. Shuning uchun berilgan sistema ikkita sistemaga ajraladi:

$$\begin{cases} x + y = -4, \\ xy = 3 \end{cases} \quad (1); \quad \begin{cases} x + y = 4, \\ xy = 3 \end{cases} \quad (2).$$

(1) sistemani yechib, $(-1;-3)$, $(-3;-1)$ yechimlarni; (2) sistemani yechib, $(1;3)$, $(3;1)$ yechimlarni topamiz.

Shunday qilib, berilgan sistema $(-1;-3)$, $(-3;-1)$, $(1;3)$ va $(3;1)$ lardan iborat yechimlarga ega.

Illus. Berilgan sistema yordamida o'zgaruvchilardan birining ikkinchisiga nisbatini topishga harakat qilamiz. Tenglamalarning chap tomonlarida bir xil darajali hadlar turgani sababli bir jinsli tenglama hosil qilish mumkin. Buning uchun uchg'a ko'paytirilgan birinchi tenglamadan 10 ga ko'paytirilgan ikkinchi tenglamani ayiramiz: $3x^2 - 10xy + 3y^2 = 0$.

Sistemadan ko'rinish turibdiki, $x \neq 0$, $y \neq 0$. Shy sababli, hosil qilingan bir jinsli tenglamadan $\frac{x}{y}$ ni topish mumkin:

$$3\left(\frac{x}{y}\right)^2 - 10 \cdot \frac{x}{y} + 3 = 0;$$

$$\frac{x}{y} = \frac{1}{3} \text{ yoki } \frac{x}{y} = 3.$$

U holda berilgan sistema quyidagi sistemalarga ajraladi:

$$\begin{cases} 3x = y, \\ xy = 3 \end{cases} \quad (3); \quad \begin{cases} x = 3y, \\ xy = 3 \end{cases} \quad (4).$$

Bu sistemalar ham birinchi usulda topilgan yechimlarga olib keladi.

6 - m i s o l. $\begin{cases} x(x+y) = 12, \\ y(x+y) = 4 \end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h . 5-misoldagi yechishning ikkinchi usulida o'zgaruvchilardan birining ikkinchisiga nisbatini bir jinsli tenglama tuzib topdik. Bu misolda ham shunday qilish mumkin. Biroq, bu sistema uchun o'zgaruvchilar nisbatini boshqa usulda topish qulay.

$x+y \neq 0$, $x \neq 0$, $y \neq 0$ ekanı ravshan. Shuning uchun tenglamalarni hadma-had bo'lish mumkin:

$$\frac{x(x+y)}{y(x+y)} = \frac{12}{4} \text{ yoki } \frac{x}{y} = 3.$$

Natijada $\begin{cases} y(x+y) = 4, \\ x = 3y \end{cases}$, sistemaga ega bo'lamiz. Bu sistema va demak, berilgan sistema ham $(-3;-1)$, $(3;1)$ yechimlarga ega.

J a v o b: $(-3;-1)$ va $(3;1)$.

$$7 - \text{m i s o l. } \begin{cases} x + y + xy = 7, \\ x^2 + y^2 + xy = 13 \end{cases} \quad \text{sistemani yeching.}$$

Y e c h i s h. Sistemada x ni y bilan, y ni esa x bilan almashtirsak, yana shu sistemaning o'zi hosil bo'ladi. Bunday sistemalar *simmetrik sistema* deb ataladi.

$x + y = u$, $xy = v$ deb olib, $\begin{cases} u + v = 7, \\ u^2 - v = 13 \end{cases}$ sistemani hosil qilamiz.

Bundan $u_1 = 4$, $v_1 = 3$ va $u_2 = -5$, $v_2 = 12$.

Eski o'zgaruvchilarga qaytsak,

$$\begin{cases} x + y = 4, \\ xy = 3 \end{cases} \quad \text{va} \quad \begin{cases} x + y = -5, \\ xy = 12 \end{cases} \quad \text{sistemalar hosil bo'ladi.}$$

Ikkinchi sistema yechimga ega emas, birinchi sistema esa (1;3), (3;1) yechimlarga ega.

Javob: (1;3), (3;1).

11.1. Sistemani yeching:

$$\text{a)} \begin{cases} x - y = 1, \\ x^2 + y^2 = 1; \end{cases} \quad \text{b)} \begin{cases} x^2 - 3xy - 2y^2 = 2, \\ x + 2y = 1; \end{cases} \quad \text{d)} \begin{cases} y - 2x = 2, \\ 5x^2 - y = 1; \end{cases}$$

$$\text{e)} \begin{cases} x - 2y + 1 = 0, \\ 5xy + y^2 = 16; \end{cases} \quad \text{f)} \begin{cases} x + y = 4, \\ y + xy = 6; \end{cases} \quad \text{g)} \begin{cases} 2x^2 - xy = 33, \\ 4x - y = 17. \end{cases}$$

11.2. Sistemani yeching:

$$\text{a)} \begin{cases} x + y = 5, \\ xy = 6; \end{cases} \quad \text{b)} \begin{cases} x + y = 3, \\ xy + 4 = 0; \end{cases} \quad \text{d)} \begin{cases} x + y = 7, \\ xy = 12; \end{cases}$$

$$\text{e)} \begin{cases} x - y = 5, \\ xy = -6; \end{cases} \quad \text{f)} \begin{cases} x - y = 9, \\ xy = -20; \end{cases} \quad \text{g)} \begin{cases} x - y = 10, \\ xy = -21. \end{cases}$$

11.3. Sistemani yeching:

$$\text{a)} \begin{cases} \frac{x}{25} + \frac{y}{9} = 1, \\ x^2 + y^2 = 1; \end{cases} \quad \text{b)} \begin{cases} 8x + 7y = 56, \\ x^2 + y^2 - 4y = 0; \end{cases}$$

$$\text{d)} \begin{cases} x + y = 1, \\ x^2 + xy + y = 1; \end{cases} \quad \text{e)} \begin{cases} x - 2y = -3, \\ -2y^2 + xy + 3y = 0. \end{cases}$$

11.4. Sistemani yeching:

$$\text{a)} \begin{cases} x^2 + y^2 = 20, \\ xy = 8; \end{cases} \quad \text{f)} \begin{cases} y^2 - xy = 12, \\ x^2 - xy = 28; \end{cases}$$

$$\text{b)} \begin{cases} x^2 + y^2 = 68, \\ xy = 16; \end{cases} \quad \text{g)} \begin{cases} x^2 + y^2 = 25 - 2xy, \\ y(x + y) = 10; \end{cases}$$

$$\text{d)} \begin{cases} x(x + y) = 9, \\ y(x + y) = 16; \end{cases} \quad \text{h)} \begin{cases} 5(x + y) + 2xy = -19, \\ 15xy + 5(x + y) = -175; \end{cases}$$

$$\text{e)} \begin{cases} x^2 + xy = 15, \\ y^2 + xy = 10; \end{cases} \quad \text{i)} \begin{cases} 5(x + y) + 2xy = -19, \\ 3xy + x + y = -35; \end{cases}$$

d) $\begin{cases} x^2 - xy = 28, \\ y^2 - xy = -12; \end{cases}$ k) $\begin{cases} 4x^2 + y^2 - 2xy = 7, \\ (2x - y)y = y. \end{cases}$

11.5. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x + y + xy = 5, \\ x^2 + y^2 + xy = 7; \end{cases}$ f) $\begin{cases} xy + 3y^2 - x + 4y - 7 = 0, \\ 2xy + y^2 - 2x - 2y + 1 = 0; \end{cases}$
 b) $\begin{cases} 2x^2 - xy + 3x^2 = 17, \\ y^2 - x^2 = 16; \end{cases}$ g) $\begin{cases} 2xy + y^2 - 4x - 3y + 2 = 0, \\ xy + 3y^2 - 2x - 14y + 16 = 0; \end{cases}$
 d) $\begin{cases} x^2 - xy + y^2 = 21, \\ y^2 - 2xy + 15 = 0; \end{cases}$ h) $\begin{cases} 3x^2 + xy - 2x + y - 5 = 0, \\ 2x^2 - xy - 3x - y - 5 = 0; \end{cases}$
 e) $\begin{cases} 2y^2 + xy - x^2 = 0, \\ x^2 - xy - y^2 + 3x + 7y + 3 = 0; \end{cases}$ i) $\begin{cases} 2x^2 + y^2 + 3xy = 12, \\ 2(x + y)^2 - y^2 = 14. \end{cases}$

11.6. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} xy - x + y = 1, \\ x^2y - xy^2 = 30; \end{cases}$ b) $\begin{cases} xy + x - y = 3, \\ x^2y - xy^2 = 2; \end{cases}$
 d) $\begin{cases} x^2 + xy + x = 10, \\ y^2 + xy + y = 20; \end{cases}$ e) $\begin{cases} x^2 + xy + 2y^2 = 37, \\ 2x^2 + 2xy + y^2 = 26. \end{cases}$

11.7. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x^3 + y^3 = 55, \\ x + y = 5; \end{cases}$ f) $\begin{cases} x^4 + y^4 = 82, \\ xy = 3; \end{cases}$
 b) $\begin{cases} x - y = 1, \\ x^3 - y^3 = 7; \end{cases}$ g) $\begin{cases} x^3 + y^3 = 7, \\ x^3y^3 = -8; \end{cases}$
 d) $\begin{cases} x^3 + y^3 = 7, \\ xy(x + y) = -2; \end{cases}$ h) $\begin{cases} (x^2 + y^2)xy = 78, \\ x^4 + y^4 = 97; \end{cases}$
 e) $\begin{cases} \frac{x^2}{y} + \frac{y^2}{x} = 18, \\ x + y = 12; \end{cases}$ i) $\begin{cases} x^3 + y^3 = 19, \\ x - y = 5. \end{cases}$

11.8. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x + y + z = 13, \\ x^2 + y^2 + z^2 = 91, \\ y^2 = xz; \end{cases}$ b) $\begin{cases} \frac{xy}{x+y} = 1, \\ \frac{xz}{x+z} = 2, \\ \frac{yz}{y+z} = 3; \end{cases}$
 d) $\begin{cases} x^2 + y^2 + z^2 = xy + yz + zx, \\ x^3 + y^3 + z^3 = 1; \end{cases}$ e) $\begin{cases} x + y + z = 0, \\ x^2 + y^2 + z^2 = 1, \\ x^3 + y^3 + z^3 = 0; \end{cases}$
 f) $\begin{cases} x + y + z = 1, \\ x^2 + y^2 + z^2 = 1, \\ x^4 + y^4 + z^4 = 1; \end{cases}$ g) $\begin{cases} xy = 2, \\ yz = 3, \\ zx = 6. \end{cases}$

12-§. MATNLI MASALALAR

1 - m a s a l a. Ikki ishchi birga ishlab smena davomida 72 ta detal tayyorladi. Ishlab chiqarish unumdorligini birinchi ishchi 15% ga, ikkinchi ishchi esa 25% ga oshirgach, ular smena davomida birqalikda 86 ta detal tayyorlay boshlashdi. Mehnat unumdorligi oshgach, har bir ishchi smena davomida nechtadan detal tayyorlagan?

Y e c h i s h. Mehnat unumdorligini oshirgunga qadar birinchi ishchi smena mobaynida x ta detal, ikkinchisi esa y ta detal tayyorlagan bo'lsin. U holda mehnat unumdorligi oshgandan so'ng, birinchi ishchi $x+0,15x$ ta detal, ikkinchi ishchi esa $y+0,25y$ ta detal tayyorlay boshlagan.

$$\text{Quyidagi sistemaga ega bo'lamiz: } \begin{cases} x + y = 72, \\ 1,15x + 1,25y = 86. \end{cases}$$

Bundan $x=40$, $y=32$ larni topamiz. Mehnat unumdorligi oshgach birinchi ishchi smena mobaynida $1,15x=1,15 \cdot 40=46$ ta, ikkinchi ishchi esa $1,25y=1,25 \cdot 32=40$ ta detal tayyorlagan.

J a v o b: 46 ta va 40 ta.

2 - m a s a l a. Ikki sonning yig'indisi 60 ga, nisbati esa 4 ga teng. Shu sonlarni toping.

Y e c h i s h. x va y izlangan sonlar bo'lib, $x>y$ bo'lsin. Quyidagi sistemaga egamiz:

$$\begin{cases} x + y = 60, \\ x:y = 4. \end{cases} \quad \text{Bu sistemadan } x=48, y=12 \text{ ni topamiz.}$$

J a v o b: 48 va 12.

3-m a s a l a. Ikki ishchining ikkinchisi birinchisidan $1\frac{1}{2}$ kun keyin ishga tushsa, ular birqalikda bir ishni 7 kunda tamomlay oladilar. Agar bu ishni har qaysi ishchi yolg'iz o'zi bajarsa, u holda birinchi ishchi ikkinchi ishchiga qaraganda 3 kun ortiq ishlashi kerak bo'ladi. Har qaysi ishchining yolg'iz o'zi bu ishni necha kunda tamomlay oladi?

Y e c h i s h. Birinchi ishchi yolg'iz o'zi ishlab, ishni x kunda, ikkinchi ishchi esa yolg'iz o'zi ishlab, y kunda bajarish. U holda birinchi ishchi bir kunda ishning $\frac{1}{x}$ qismini, ikkinchi ishchi bir kunda ishning $\frac{1}{y}$ qismini bajaradi.

$$\text{Birinchi ishchi } 1\frac{1}{2} \text{ kun ishlab, ishning } 1\frac{1}{2} \cdot \frac{1}{x} = \frac{3}{2x}$$

qismini bajargach, ikkinchi ishchi ishlashni boshladı. Ular birgalıkda 7 kun ishlagan. Shu 7 kunda ishning $7 \cdot \frac{1}{x} + 7 \cdot \frac{1}{y} = \frac{7x+7y}{xy}$ qismi bajarilgan. Shunga ko'ra $\frac{3}{2x} + \frac{7x+7y}{xy} = 1$ tenglamaga ega bo'lamiz. Yolg'iz o'zi ishlagan birinchi ishchi ikkinchisiga qaraganda 3 kun ko'p ishlab, ishni tamomlaydi. Demak, $x=3=y$.

$\begin{cases} \frac{3}{2x} + \frac{7x+7y}{xy} = 1, \\ x=3=y \end{cases}$, sistemani hosil qilamiz. Bu sistemani yechsak, $x=17$, $y=14$ ekanı topiladi.

J a v o b: Birinchi ishchi 17 kunda, ikkinchi ishchi 14 kunda.

4 - m a s a l a. Oltin va kumushdan hosil qilingan ikki xil qotishmalarining birinchisida oltin va kumush 2:3 nisbatda, ikkinchisida esa 3:7 nisbatda ekanligi ma'lum. Oltin va kumush 5:11 nisbatda bo'ladigan yangi qotishma hosil qilish uchun ko'rsatilgan qotishmalarni qanday nisbatda olish kerak?

Y e c h i s h. Birinchi qotishmaning $\frac{2}{2+3} = \frac{2}{5}$ qismi oltin va $\frac{3}{2+3} = \frac{3}{5}$ qismi kumushdan iborat. Ikkinci qotishmaning $\frac{3}{3+7} = \frac{3}{10}$ qismi oltin va $\frac{7}{3+7} = \frac{7}{10}$ qismi esa kumushdir.

Yangi qotishma hosil qilish uchun olingan birinchi qotishmaning miqdorini x bilan va ikkinchi qotishmaning miqdorini y bilan belgilaylik (x va y lar og'irlilikni ifodalaydi).

x miqdordagi birinchi qotishmadagi oltinning va kumush ning miqdori mos ravishda $\frac{2}{5}x$ va $\frac{3}{5}x$ ga teng. y miqdordagi ikkinchi qotishmadagi oltinning miqdori $\frac{3}{10}y$ ga, kumushning miqdori esa, $\frac{7}{10}y$ ga teng. Yangi qotishmaga $\frac{2}{5}x + \frac{3}{10}y$ miqdorda oltin va $\frac{3}{5}x + \frac{7}{10}y$ miqdorda kumush kiradi.

Shartga ko'ra, $\frac{\frac{2}{5}x + \frac{3}{10}y}{\frac{3}{5}x + \frac{7}{10}y} = \frac{5}{11}$. Bu tenglik yordamida $\frac{x}{y}$ nisbatni topamiz:

$$\frac{4x+3y}{6x+7y} = \frac{5}{11} \Rightarrow 44x + 33y = 30x + 35y \Rightarrow 14x = 2y \Rightarrow \frac{x}{y} = \frac{1}{7}$$

J a v o b. Qotishmalarni 1:7 nisbatda olish kerak.

5 - m a s a l a. Mahsulot dastlab 20 % ga arzonlashtirildi. Yangi narx yana 10 % kamaytirilgach, hosil bo'lgan keyingi narx yana 5% ga kamaytirildi. Mahsulotning dastlabki narxi necha foiz kamaytirildi?

Y e c h i s h. Mahsulotning dastlabki narxi x (so'm) bo'lsin. Bu narx 20% kamaytirilgach, mahsulotning narxi $x-0,20x=0,80x$ (so'm) bo'ladi. Bu narx 10 % kamaytirilsa, $0,80x-0,10\cdot 0,80x=0,72x$ so'mdan iborat bo'lgan yangi narx paydo bo'ladi. Bu narx 5 % kamaytirilsa, mahsulotning oxirgi narxi $0,72x-0,05\cdot 0,72x=0,684x$ so'm ekanligi kelib chiqadi.

Dastlabki narx x so'm, eng oxirgi narx $0,684x$ so'm bo'ldi. Mahsulot $x-0,684x=0,316x$ so'mga arzonlashtirildi. $0,316x$ so'm x so'mning necha foizini tashkil etishini topamiz.

Proporsiya tuzaylik: $\frac{x}{0,316x} = \frac{100}{p}$. Bundan $p=31,6$ ekanli kelib chiqadi.

J a v o b: 31,6 %.

6 - m a s a l a. Ikki xonali noma'lum son raqamlarining yig'indisi 12 ga teng. Shu ikki xonali noma'lum songa 36 soni qo'shilsa, noma'lum sonning raqamlarini teskari tartibda yozishdan hosil bo'ladigan son kelib chiqadi. Noma'lum sonni toping.


Y e c h i s h. Ikki xonali noma'lum sonning raqamlari x , y bo'lsin, ya'ni $xy = 10x + y$ izlangan son bo'lsin. Quyidagilarga egamiz:

$$\begin{cases} x + y = 12, \\ \frac{x}{y} + 36 = \frac{y}{x}, \end{cases} \text{ yoki } \begin{cases} x + y = 12, \\ 10x + y + 36 = 10y + x. \end{cases} \text{ Bu siste-} \\ \text{madan } x=4, y=8 \text{ ekanli kelib chiqadi. Demak, izlangan son } 48 \text{ ekan.}$$

J a v o b: 48.

7 - m a s a l a. Yuk poezdi A shahardan B shaharga qarab jo'nadi (16-rasm). Oradan 3 soat o'tgach, A shahardan V shaharga qarab, yo'lovchi poezdi yo'lga chiqdi va oradan 15 soat o'tgach yuk poezdidan 300 km o'zib ketdi. Agar yo'lovchi poezdining tezligi yuk poezdining tezligidan 30 km/soat ortiq bo'lsa, yuk poezdining tezligini toping.

Y e c h i s h. Yuk poezdining tezligi x km/soat bo'lsin. U holda yo'lovchi poezdining tezligi $x+30$ km/soat bo'ladi. Yo'lovchi poezdi 15 soat yurib, $15(x+30)$ km masofani bosib o'tadi. Yuk poezdi 18 soatda $18x$ km masofani bosib o'tgan.



Shunga ko'ra $18x + 300 = 15(x+30)$ tenglamaga ega bo'lamiz.
Uni yechib, $x=50$ ekanini aniqlaymiz.

J a v o b. 50 km/soat.

Quyidagi masalalarни kvadrat tenglama tuzib yeching:

12.1. To'g'ri to'rtburchakning balandligi asosining 75% iga teng. Agar shu to'g'ri to'rtburchakning yuzi 48 m^2 bo'lsa, uning perimetрини toping.

12.2. 15 t sabzavotni tashish uchun ma'lum miqdorda yuk ortadigan bir necha mashina so'ralgan edi. Garajda tayyor turgan mashinalar bo'lmagani uchun, garaj so'ralgandan bitta ortiq, lekin 0,5 t kam yuk ortadigan mashinalar yubordi. Yuborilgan mashinalarning har biriga necha tonna sabzavot ortilgan?

12.3. Jamoa xo'jaligi 200 ga yerga ma'lum muddatda chigit ekib bo'lishi kerak edi, ammo u har kuni rejadagidan 5 ga ortiq ekib, ishni muddatidan 2 kun oldin tugatdi. Chigit ekish necha kunda tugatilgan?

12.4. Tomosha zalida 320 ta o'rin bor edi. Har bir qatordagi o'rirlar soni 4 ta orttirilib, yana bir qator qo'shilgandan so'ng 420 ta joy bo'ldi. Tomosha zalidagi joylar endi necha qator bo'ldi?

12.5. Kema oqimiga qarshi 48 km va oqim bo'yicha ham shuncha yo'l bosdi, hamma yo'lga 5 soat vaqt sarf qildi. Daryo oqimining tezligi 4 km/soat bo'lsa, kemaning turg'un suvdagi tezligini toping.

12.6. Ikki pristan orasidagi masofa daryo yo'li bilan 80 km. Kema shu pristanlarning biridan ikkinchisiga borib kelish uchun 8 soat 20 minut vaqt sarf qiladi. Daryo oqimining tezligi 4 km/soat bo'lsa, kemaning turg'un suvdagi tezligini toping.

12.7. Qayiq daryo oqimiga qarshi 22,5 km, oqim bo'yicha esa 28,5 km yurib, butun yo'lga 8 soat vaqt sarfladi. Oqimining tezligi 2,5 km/soat. Qayiqning turg'un suvdagi tezligini toping.

12.8. Daryo yoqasidagi qishloqdan sol oqizildi. Oradan 5 soat 20 minut o'tgach, o'sha qishloqdan motorli qayiq jo'natildi. Motorli qayiq 20 km yo'l bosib, solga yetib oldi.

Agar motorli qayiqning tezligi solning tezligidan 12 km/soat ortiq bo'lsa, solning tezligini toping.

12.9. Suv ikkita quvurdan kelganda suv haydash qozoni 2 soat 55 minutda to'ladi. Birinchi quvurning yolg'iz o'zi suv haydash qozonini ikkinchisiga qaraganda 2 soat oldin to'ldira oladi. Har qaysi quvurning yolg'iz o'zi suv haydash qozonini qancha vaqtida to'ldiradi?

12.10. Ikki ishchi ayni bir ishni birlashtirish ishlasa, 12 kunda tamom qiladi. Agar oldin bittasi ishlab, ishning yarmini tamom qilgandan keyin uning o'miga ikkinchisi ishlasa, ish 25 kunda tamom bo'ladi. Shu ishni har qaysi ishchi yolg'iz o'zi ishlasa, necha kunda tamom qiladi?


12.11. Quvvatlari har xil ikkita traktor 4 kun birga ishlab jamoa xo'jaligi yerining $\frac{2}{3}$ qismini haydadi.

Agar butun yerni birinchi traktor ikkinchisiga qaraganda 5 kun tezroq hayday olsa, butun yerni har qaysi traktor yolg'iz o'zi necha kunda hayday oladi?

12.12. Portdag'i ikki kema bir vaqtida, biri shimolga qarab, ikkinchisi sharqqa qarab jo'nadi. 2 soatdan keyin ular orasidagi masofa 60 km bo'ldi. Bu kemalardan birining tezligi ikkinchisiniidan 6 km/soat ortiq. Har qaysi kemaning tezligini toping.

12.13. Har qanday uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan 7 ta nuqtadan nechta turli to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

Y e c h i s h . Rasmga qarang (17-rasm):



17-rasm.

Boshi A₁ nuqtada bo'lgan 6 ta vektorga egamiz. Boshi qolgan nuqtalarda bo'lgan vektorlar ham 6 tadan bo'ladi. Hammasi bo'lib $7 \cdot 6 = 42$ ta turli vektorlar hosil bo'ladi. Bu vektorlar 21 juft qarama-qarshi vektorlardir. Qarama-qarshi vektorlar jufti bitta to'g'ri chiziqda yotadi (Bizning misolda).

Shunday qilib, aytilgan to'g'ri chiziqlar $42:2=21$ ta ekan.

Topshiriq. Har qanday uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan n ta nuqta orqali o'tuvchi turli to'g'ri chi-

ziqlar soni $\frac{n(n - 1)}{2}$ ga tengligini isbotlang. Bu tasdiqdan foydalaniib, 12.14–12.18-masalalarni yeching.

12.14. Futbol o'yini musobaqasida hammasi bo'lib 55 ta o'yin o'ynaldi. Bunda har bir komanda qolgan komandalardan bilan faqat bir martadan o'ynadi. Musobaqada nechta komanda qatnashgan?

12.15. Shaxmat turnirida hammasi bo'lib 231 partiya shaxmat o'ynaldi. Agar har bir shaxmatchi qolgan shaxmatchilarning har biri bilan faqat bir partiya shaxmat o'ynagan bo'lsa, turnirda necha kishi qatnashgan?

12.16. Maktab bitiruvchilari bir-birlari bilan rasm almashtirdi. Agar 870 ta rasm almashtirilgan bo'lsa, maktabni necha o'quvchi bitirgan?

12.17. Qavariq ko'pburchakning 14 ta diagonali mavjud. Uning tomonlari nechta?

12.18. Qanday ko'pburchak diagonallarining soni tomonlarining sonidan 12 ta ortiq bo'ladi?

Tenglamalar sistemasi tuzib yechiladigan masalalar

12.19. Poezd yo'lda 6 minut to'xtab qoldi va 20 km yo'lda tezligini soatiga jadvaldagidan 10 km oshirib, kechikishni yo'qotdi. Poezd shu yo'lda jadvalga muvofiq qanday tezlik bilan yurishi kerak edi?

12.20. A va B stansiyalar orasidagi yo'lning o'rtaasida poezd 10 minut to'xtab qoldi. B stansiyaga kechikmasdan borish uchun haydovchi poezdning dastlabki tezligini 6 km/soat oshirdi. Agar stansiyalar orasidagi masofa 60 km bo'lsa, poezdning dastlabki tezligini toping.

12.21. Perimetri 28 sm bo'lgan to'g'ri to'rburchakning qo'shni tomonlariga tashqaridan yasalgan kvadratlarning yig'indisi 116 sm² ga teng. To'g'ri to'rburchakning tomonlarini toping.

12.22. Yuzi 120 sm², diagonali esa 17 sm bo'lgan to'g'ri to'rburchakning tomonlarini toping.

12.23. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 41 sm, yuzi 180 sm². Katetlarini toping.

12.24. To'g'ri burchakli uchburchakning perimetri 48 sm, yuzi 96 sm². Uchburchakning tomonlarini toping.

12.25. Ikki musbat sonning o'rta arifmetigi 20, o'rta geometrigi esa 12. Shu sonlarni toping.

12.26. Ikki shahar orasidagi masofa 480 km; shu masofani yo'lovchi poezdi yuk poezdiga qaraganda 4 soat tez bosadi.

Agar yo'lovchi poezdining tezligi 8 km/soat oshirilsa, yuk poezdining tezligi esa 2 km/soat oshirilsa, passajir poezdi shu masofani yuk poezdiga qaraganda 5 soat tez o'tadi. Har qaysi poezdning tezligini toping.

12.27. Oralaridagi masofa 180 km bo'lgan A va B shaharlardan ikki poezd bir vaqtida bir-biriga qarab yo'lga chiqdi. Ular uchrashgandan keyin A shahridan chiqqan poezd B shaharga 2 soatda yetib boradi, ikkinchisi esa A shaharga 4,5 soatda yetib boradi. Poezdlar tezligini toping.

12.28. Velosipedchilar poygasi uchun 6 km uzunlikdagi masofa belgilandi. Akmal Shavkatdan o'tib ketib, marraga 2 minut oldin keldi. Agar Akmal tezligini 0,1 km/minut kamaytirib, Shavkat tezligini 0,1 km/minutga oshirsa, unda Akmal marraga Shavkatdan 2 minut oldin yetib kelardi. Akmal va Shavkatlarning tezligini toping.

12.29. Ikki ekskavator birga ishlab, biror hajmdagi yer ishlarini 3 soat-u 45 minutda bajaradi. Bir ekskavator alohida ishlab, bu hajmdagi ishni ikkinchisiga qaraganda 4 soat tezroq bajaradi. Shunday hajmdagi yer ishlarini bajarish uchun har bir ekskavatorga alohida qancha vaqt kerak bo'ladi?

12.30. Bir kombaynchi maydondagi bug'doy hosilini ikkinchi kombaynchidan 24 soat tezroq o'rib olishi mumkin. Ikkala kombaynchi birgalikda ishlaganda esa hosilni 35 soatda o'rib olishadi. Har bir kombaynchi alohida ishlab, hosilni o'rib olishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

12.31. Ikkita musbat sonning yig'indisi ularning ayirmsasidan 5 marta katta. Agar shu sonlar kvadratlari ayirmasi 180 ga teng bo'lsa, bu sonlarni toping.

12.32. Ikki xonali son o'zining raqamlari kvadratlarining yig'indisidan 11 ta kam va raqamlarining ikkilangan ko'paytmasidan 5 ta ortiq. Shu ikki xonali sonni toping.

12.33. Ikki xonali son raqamlari kvadratlarining yig'indisi 13 ga teng. Agar bu sondan 9 ni ayirsak, shu raqamlar bilan teskari tartibda yozilgan son hosil bo'ladi. Shu sonni toping.

12.34. Bاليق og 'irligi bo'yicha beshta qismiga 14:12:11:9:15 kabi nisbatlarda bo'lingan. Ikkinci bo'lakning og'irligi 11,2 g ekanligini bilgan holda baliqning butun og'irligini toping.

12.35. Ikkita metalldan ikki xil qotishma tayyorlangan. Birinchi qotishmada metallar 1:2 nisbatda, ikkinchi qotishmada esa 3:2 nisbatda. Metallar nisbati 8:7 bo'ladigan

qilib yangi qotishma tayyorlash uchun metallarni qanday nisbatda olish kerak?

12.36. Tovar dastlab 20 % ga, so‘ngra yana 15 % ga arzonlashgach, 2380 so‘m deb baholandi. Tovarning dastlabki narxini toping.

13-§. CHIZIQLI TENGSIZLIKLER. KVADRAT TENGSIZLIKLER

Tengsizliklarni yeching:

$$13.1. 7x - 3(2x+3) > 2(x-4). \quad 13.2. \frac{x+1}{4} < 2 \frac{1}{2} - \frac{1-2x}{3}.$$

$$13.3. \frac{6-5x}{5} + \frac{3x-1}{2} > 5 - x. \quad 13.4. \frac{7x}{4} < 0.3(x+7) + 2 \frac{1}{5}.$$

$$13.5. -x(x-1) - 6 > 5x - x^2. \quad 13.6. 7x - 6 < x+12.$$

